если раньше могло показаться, что эти проблемы остро касаются лишь жителей так называемого «глобального Юга», то сейчас они все больше заметны и в северной части планеты. Достаточно обратить внимание на события этого лета: экстремальная жара в Канаде, наводнение в Нью-Йорке из-за урагана Эльза, ураганы в Сочи и Краснодарском крае, лесные пожары в Якутии и Карелии, разрушительные наводнения в Германии и Бельгии, Сардобинская трагедия в Узбекистане. «Никто не находится в безопасности, а ситуация ухудшается все быстрее», — заявила исполнительный директор Программы ООН по окружающей среде Ингер Андерсен на пресс-конференции, посвященной публикации доклада

Сегодня проблема влияния экологических проблем на гендерное насилие недостаточно изучено. Имеется лишь несколько зарубежных исследований. Например, вопросы экофеминизма в аспекте глобализации было изучено Heather Eaton and Lois Ann Lorentzen. Lanham, кроме этого, становление экофеминизма как культурное явление было исследовано Karen J. Warren, Carol J. Adams исследовал данную тему как личное, сакральное явление. Российский исследователь Мартыновой Е.Р. рассмотрела экофеминизм в социально-философском ракурсе. В Узбекистане тема была поднята Н.Косимовой.

Общественным объединением «Эколог» Республики Узбекистан в апреле-июне 2023 года совместно с Центром Поддержки гражданских инициатив Республики Каракалпакстан и Центром социально-правовой поддержки женщин и их семей «Калб Нури» Джизакской области провели анкетирование для определения гендерного насилия, вызванного воздействием изменения климата. В опросе по Республике Каракалпакстан участвовали из 16 районов и г. Нукуса 123 женщин и девушек. Из них 49 женщин и девушек с инвалидностью. В опросе по Джизакской области (12 районов и г. Джизак) приняли 170 женщин и девушек, из них 36 женщины с инвалидностью.

Выяснилось, что в Республике Каракалпакстан подвержены гендерному насилию 72 процента, а по итогам опроса в Джизакской области 87 процента респондентов ответили, что изменение климата и экологические проблемы влияют на рост гендерного насилия. Респонденты отвечали на такие вопросы, как: «Влияют ли экологические проблемы на насилие в семье?», «Сталкивались ли вы с насилием из-

за экологических проблем?», «Есть ли связь между экологическими проблемами и домашним насилием?», «Может ли глобальное изменение климата, то есть повышение температуры, стать причиной разлада в семье?», «С какими проблемами вы столкнулись в результате загрязнения воздуха и пыльных бурь?», «Как на вас повлияла вырубка деревьев?», «С какими трудностями сталкивается ваша семья из-за засоления почвы?». По итогам опросов были проведены 2 «Круглых столов» в г. Нукусе (Республика Каракалпакстан) и в г. Джизаке направленный на повышение информированности государственных и негосударственных организаций и представителей СМИ о результатах исследования по выявлению гендерного насилия, вызванного изменением климата. На мероприятиях участвовали представители Жукори Кенгеса, хокимията, государственных и негосударственных органов, комитета женщин, прокуратуры, партии, Ассоциации инвалидов, руководители ННО, правоохранительных органов, органов прокуратуры, журналисты и другие. Было подготовлено письмо на имя Т. Нарбаевой, председателя Комиссии по гендерному равенству Узбекистана по итогам опросов, проведенных в Республике Каракалпакстан и Джизакской области, куда были включены рекомендации, разработанные участниками круглых столов.

От последствий загрязнения окружающей среды и экологических катастроф сильнее страдают наиболее уязвимые и экономически незащищенные группы людей. Бедные люди чаще проживают в труднодоступных, загрязненных районах, ведь там дешевле жилье. Они страдают хроническими заболеваниями, которые одновременно могут являться и следствием проживания в неэкологичных районах, и причиной усиления бедности. Реже владеют личным транспортом, который может быть необходим, чтобы экстренно выбраться из зоны бедствия. Из-за отсутствия доступа к образованию люди могут быть хуже осведомлены об экологических опасностях, своих правах и способах защитить себя. При этом большинство бедных людей на планете – женщины. Глобальная бедность женщин вызвана гендерным неравенством. Женщины владеют меньшим количеством ресурсов, чем мужчины, чаще имеют проблемы с доступом к образованию, получают меньшую зарплату, реже имеют финансовые накопления, сталкиваются с дискриминацией, мешающей

карьерному росту, чаще занимаются неоплачиваемым трудом по дому и по уходу за детьми и пожилыми родственниками. С каждым годом становится все более очевидным, что существует взаимосвязь между этими двумя явлениями.

Экологическая депривация и насилие:

Одним из способов, которыми экологические изменения могут влиять на гендерное насилие, является создание ситуаций экологической депривации. Например, снижение доступности пресной воды и продовольствия может создать конкуренцию за ограниченные ресурсы, что может привести к усилению насилия в семьях и обществе. Жертвами такой ситуации могут стать в основном женщины, которые во многих обществах чаще несут ответственность за заботу о семье и детях. Об этом свидетельствует и вышеприведенный опрос, проведенный ОО «Эколог» Республики Узбекистан.

Управление ресурсами и гендерное равенство:

Управление природными ресурсами играет важную роль в вопросе гендерного насилия. В обществах, где женщины имеют ограниченный доступ к земле и ресурсам, экологические изменения могут еще более усугубить их уязвимость. Справедливое управление ресурсами и равенство в распределении благ имеют значение для снижения гендерного насилия.

Экологические проблемы оказывают значительное влияние на жизнь и здоровье женщин, а также на их социальное и экономическое положение:

Здоровье: Загрязненный воздух, вода и почва могут вызывать серьезные заболевания и проблемы с здоровьем, такие как астма, рак и болезни сердца. Женщины, особенно беременные и дети, часто более уязвимы перед воздействием загрязнений, поскольку они часто находятся вблизи источников загрязнения или потребляют загрязненную пищу и воду.

Водоснабжение и санитарные условия: Недостаток доступа к чистой питьевой воде и надежным санитарным условиям может вынудить женщин тратить больше времени и усилий на поиск воды и уход за семьей. Это может ограничивать их возможности для образования и трудовой деятельности.

Бедность и безработица: Экологические катастрофы, такие как наводнения, засухи и ураганы, могут разрушать сельское хозяйство

и инфраструктуру, что может сильнее ударить по женщинам, так как они часто занимаются сельским трудом и работой на мелких фермах. Бедность и потеря рабочих мест могут сделать жизнь женщин более тяжелой.

Миграция и насилие: Климатические изменения и экологические кризисы могут приводить к вынужденной миграции. Женщины и девочки могут оказаться более уязвимыми перед насилием и эксплуатацией во время миграции.

Участие в принятии решений: Женщины имеют право участвовать в принятии решений по вопросам окружающей среды, но часто им мешают социокультурные и политические барьеры. Усиление голоса женщин в области экологии и устойчивости может способствовать более эффективным решениям. Например, в Узбекистане в системе Министерства Экологии, защита окружающей среды и изменения климата руководителем областного управления является лишь одна женщина, директор Сурхандарьинского управления Экологии.

Здоровье репродуктивной системы: Некоторые экологические факторы, такие как воздействие химических загрязнителей, могут оказывать негативное воздействие на здоровье репродуктивной системы женщин, что может привести к проблемам с беременностью.

Выводы:

– экологические проблемы оказывают серьезное воздействие на жизнь женщин. Это включает в себя ухудшение качества воды и воздуха, что может привести к различным заболеваниям и проблемам с здоровьем женщин;

– женщины, особенно в развивающихся странах, часто являются основными участниками сельского хозяйства и сбора лесных ресурсов. Экологические изменения, такие как климатические катастрофы и ухудшение почвы, могут существенно влиять на их доходы и доступ к продовольствию;

– отходы и загрязнения окружающей среды могут воздействовать на репродуктивное здоровье женщин, вызывая проблемы с беременностью и ростом заболеваний, связанных с репродуктивной системой;

– экологические проблемы также могут усугубить социальные неравенства, так как женщины часто не имеют равного доступа к ресурсам и возможностям для приспособления к изменениям в окружающей среде;

– необходимо принимать меры для уменьшения экологических угроз и обеспечения участия женщин в процессах устойчивого развития. Это может включать в себя укрепление прав женщин, повышение их осведомленности и участие в экологических инициативах.

Влияние экологических проблем на гендерное насилие является многогранной проблемой, которая требует внимания как исследователей, политиков, так и активистов. Поскольку экологические проблемы продолжают обостряться из-за изменения климата и нехватки ресурсов, понимание связи с гендерным насилием имеет решающее значение.

Усилия по решению этой проблемы должны быть сосредоточены на:

Повышение осведомленности о пересечении экологических проблем и гендерного насилия.

Разработка политики и мер, учитывающих уникальную уязвимость женщин и девочек перед лицом экологических кризисов.

Предоставление женщинам и девочкам доступа к образованию и ресурсам для повышения их устойчивости.

Пропаганда гендерно-чувствительного реагирования на стихийные бедствия и усилий по восстановлению.

Признавая сложную взаимосвязь между экологическими проблемами и гендерным насилием, мы можем работать над созданием более устойчивого и справедливого мира, в котором женщины и девочки будут защищены от насилия, даже перед лицом экологических проблем.



Alimov Sardor Komil o'g'li,

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va oila psixologiyasi" bo'limi boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


GENDER TENGLIGI VA MIGRATSIYA

Zamonaviy dunyoda migratsiya. Xalqaro migratsiya tashkiloti bergan ma'lumotga ko'ra, 1970-yildan 2020-yilgacha migrantlar soni sayyora aholisining 2,3 foizdan 3,5 foizgacha oshib, 84 mln dan 281 mln ga yetgan. Ulardan 135 millionini ayollar, 146 millionini esa erkaklar tashkil qiladi.

1990-yilda Yer yuzidagi har 35 kishidan bittasi muhojir bo'lgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 29 nafarga bir migrantga to'g'ri kelmoqda. Agarda butun dunyodagi migrantlarni bir hududga yig'ib, yagona davlatga birlashtirish imkoniyati bo'lganida edi, ushbu davlat 2019-yil yakuniga ko'ra, aholi soni bo'yicha dunyoda Xitoy, Hindiston, AQSh, Indoneziyadan keyin beshinchi o'rinni egallagan bo'lardi. Hattoki migrantlar hayoliy davlati aholisining soni bo'yicha tez orada Indoneziyadan o'tib ketishini ham taxmin qilish mumkin bo'lar edi.


Zamonaviy tendensiyalar:

- nolegal migratsiya oqimining ortib borishi;
- majburiy migratsiya ulushining oshib borishi;
- xalqaro migratsiya demografik ahamiyatining kuchayib ketishi.
- migrantlar uchun emigrant, tranzit va immigrant davlatlar orasida an'anaviy farqlar kamayib borishi.
- migrantlarning tarkibidagi sifat o'zgarishi.
- davlatlarning migratsion siyosatidagi o'zgarishlar.
- immigrantlarning mamlakatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsata boshlaganligi.



1-rasm. Global migrantlar sonining ortib borishi

O'z navbatida savol tug'iladi? **Migratsiya jarayonlari migrant va uning oilasiga, donor hamda resipient mamlakat va jamiyatga qanday foyda keltiradi?**



**2-rasm. Xalqaro migrantlarning migratsiya yo'nalishlari
(jins kesimida)**

Migratsiya va gender tengligi.

1960-yildayoq migrant ayollarning migratsiyadagi ulushi deyarli 47 foizga yetgan. Bugungi kunda esa migrantlarning 52 foizi erkaklar, 48 foizi esa ayollar bo'lib, migrantlarning deyarli yarmini ayollar tashkil etishmoqda. Ayollar migratsiya jarayonida an'anaviy tarzda ikkinchi to'lqin sifatida talqin etib kelinadi.

Xalqaro migratsiyaning asosiy yo'nalishlari Yevropa, Shimoliy Amerika, G'arbiy Osiyo mintaqasiga yo'nalganligini kuzatishimiz mumkin. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalaridan ketuvchi (39 foiz) va Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyoga keluvchi (36 foiz) ayollarning ulushi umumiy ko'rsatkichdan past².

Ayollar migratsiyasining bir qancha motivlari mavjud:

- farzandlarining xavfsizligi ta'minlash, ular uchun yaxshi sharoit yaratib berishga intilish;
- tazyiq, zo'rvonlik va turli taqiblardan qochish;
- oilalarning birgalikda yashashiga intilish, oilani birlashtirish;
- qashshoqlikdan qochish, farovonlik, ish va yashash uchun qulay joy izlash va boshqalar.

² World Migration Report 2020. (https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf). International Organization for Migration. - P. 22.

Migratsiya jarayonlari ayollar uchun **“Double disadvantage”** – **“Ikki barobar noqulaylik”ni vujudga keltiradi. Ya’ni bu noqulayliklar – gender tafovut va migratsiya tafovuti tufayli paydo bo’ladi.**

Misol uchun, 2020-yilda Irlandiyada 89 ming nafarga yaqin Yevropa Ittifoqiga a’zo bo’lmagan donor mamlakatlardan kelgan migrant xotin-qizlar istiqomat qilgan, bu esa mamlakatda yashagan doimiy ayollarning 3,5 foizini tashkil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, Yevropa Ittifoqiga a’zo bo’lmagan davlatlardan kelgan migrant ayollar irlandiyalik ayollarga qaraganda og’irroq ijtimoiy sharoitda yashaydi va ular orasida perinatal o’limlar boshqa guruhlariga qaraganda yuqori. Bunga gender va oiladagi zo’ravonlik, kamsitish, boshpanasizlik va to’g’ridan-to’g’ri turar joy bilan ta’minlash tizimida yashovchi ayollarning ijtimoiy zaifligi kabi ijtimoiy inklyuziya (ijtimoiy integratsiya) tizimidagi muammolar ham sabab bo’lmoqda. Migrant ayollar Irlandiyada boshqa guruhlariga qaraganda odam savdosi xavfiga ko’proq duch kelishadi. Bu holat faqatgina Irlandiyaga xos emas. Yevropa Ittifoqi bo’ylab o’tkazilgan **“Yevropa migratsiya tizimi”** (European Migration Network – EMN) ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, migrant ayollar Yevropa Ittifoqining deyarli barcha davlatlarida xuddi shunday muammolarga duch kelishadi.

1-jadval

Xalqaro mehnat migrantlari, boradigan mamlakatlarining iqtisodiy holati va migrantlarning jinsi bo’yicha

Иқтисодий ривожланиш ҳолати бўйича минтақалар	Меҳнат мигрантлари (миллион нафар)			Жами меҳнат мигрантларидаги улуши (%)		
	Эркаклар	Аёллар	Жами	Эркаклар	Аёллар	Жами
Ривожланмаган	3,7	2,4	6,1	2,2	1,4	3,6
Кам ривожланган	10,5	5,6	16,0	6,2	3,3	9,5
Ривожланган	19,5	13,5	33,0	11,5	8,0	19,5
Юқори даражада ривожланган	65,3	48,5	113,9	38,6	28,7	67,4
Дунё бўйича жами	98,9	70,1	169	58,5	41,5	100

Ayollarga qarshi kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita (CEDAW) ning 2009-yildagi 26-sonli umumiy tavsiyasiga ko'ra, migrant ayollar tegishli immigratsion maqomga ega bo'lmasa ham, immigrant davlatlar ularning asosiy tabiiy huquqlarini himoya qilishlari lozim, jumladan ayollar uchun barcha holatlarda (homiladorlik va onalik holatida ham) sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi lozim.



3-rasm. Migrant ayollar va migrant oilalarning huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro hujjatlar

Ayollar ichki migratsiyasi.

Davlat statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda ichki migrantlarning soni 254 939 nafarni tashkil etgan. Davlat statistika agentligining Ichki ishlar vazirligi tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlarida migrantlarning jins kesimidagi tahlili mavjud emas.

Mazkur ma'lumotlar faqatgina yashash joyidan ro'yxatdan o'tgan doimiy istiqomat qiluvchilarni qamrab olgan. Vaqtinchalik ko'chib keluvchilar, umuman ro'yxatga olinmaganlar sonini inobatga olsak, ushbu raqamlar bir necha barobarga ortishi mumkin.

Ko'chib ketish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent viloyati (27 547 nafar) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (26 971 nafar) hissasiga to'g'ri keladi.

Asosiy migratsion yo'nalish Toshkent shahri (111 919 nafar) va Toshkent viloyati (35 265 nafar) tomonga amalga oshirilgan.

Ayollar ichki migratsiyasi mamlakatdagi ijtimoiy infratuzilma uchun ma'lum darajada bosimni shakllantiradi. Misol uchun, Toshkent shahrida 2021-yilda jami **153 ta shifoxonada 24 ming o'rin** mavjud bo'lgan. Shuning **1038 ta ambulator-poliklinikalar** ham poytaxt aholisi uchun xizmat ko'rsatgan. Respublika bo'yicha jami akusher-ginekologlar soni **2011–2021-yillar oralig'ida 1 ming nafarga** kamaygan (**6,1 mingdan 5,1 mingga**). Toshkent shahrida 2021-yilda jami **2 mln 694 ming** doimiy aholi yashagan bo'lib, ularning **1 mln 375 ming nafari** ayollar bo'lgan. Doimiy aholi soniga nisbatan hisoblaganda, **har bir 112 kishiga kasalxonadagi 1 o'rin** to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, **vaqtinchalik ro'yxatdan o'tgan va ro'yxatdan o'tmagan aholi, tibbiy xizmatdan** foydalanish uchun poytaxtga tashrif buyuruvchi aholining soni **bir necha 100 mingga** yetishi mumkin.

2021/2022-o'quv yilida Respublikada jami **10 ming 289 ta** umumta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda **6 mln 304 ming 586 nafar** o'quvchiga **529 ming 116 nafar** o'qituvchilar ta'lim berishgan. Maktablarda faoliyat olib borayotgan har bir o'qituvchiga **11,9 nafar o'quvchi** nisbati to'g'ri kelgan. Toshkent shahrida esa **368 ta** umumta'lim maktabi mavjud bo'lib, ularda **28 ming 19 nafar** o'qituvchilar **485 ming 883 nafar** o'quvchilarga ta'lim berishgan. Poytaxtdagi har bir o'qituvchiga **17,3 nafar o'quvchi** nisbati yoki Respublikadagi umumiy statistikadan **5,4 nafarga ko'proq** o'quvchi to'g'ri kelmoqda. Yoki Respublika bo'yicha har bir maktabda o'qiyotgan o'quvchilarning o'rtacha soni **612,8 nafarga** teng bo'lgan holatda, Toshkent shahridagi har bir maktabda o'rtacha **1320,3 nafar (2,2 marta ortiqroq)** o'quvchi tahsil olmoqda.

Xulosa. Migrantlar, xususan, migrant ayollarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning haq-huquqlarini himoya qilish global miqyosda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur deb o'ylaymiz:

– migrant ayollarni resipient davlatda ijtimoiy himoya qilishdagi asosiy muammolardan biri – migrant ayollardagi til, madaniyat, axloq bilan bog'liq farqlar hisoblanadi. Migrant ayollarni migratsiya jarayoni uchun hali mamlakatni tark etishidan oldinoq tayyorlash lozim. Ya'ni immigrant davlat aholisining tili, madaniyati, qonunchiligini o'rgatish, kasb-hunarga o'qitish kabi tayyorlash

bosqichlarini amalga oshirish migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilishning samarali usuli bo'lib xizmat qiladi;

- O'zbekiston migrant ayollarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning konvensiyalari va tavsiyalarini (xususan, XMTning 102, 118, 121, 128, 130, 157, 168 va 183 raqamli Konvensiyalari) ratifikatsiya qilishi hamda amaliyotda qo'llashi talab etiladi. Mazkur hujjatlardagi tegishli normalarni qabul qilinish bosqichida bo'lgan "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasiga qo'shish lozim;

- uy xo'jaligi ishlari, yolg'iz keksalar va bolalar parvarishi, xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish kabi kam malakali, kam mablag'li sohalarda ishlayotgan migrant ayollarning mehnat shartnomasi asosida ishlarini tashkil etish lozim. Bu ularni qonuniy jihatdan himoyalab, ularga ijtimoiy ta'minot ko'rsatishga olib keladi;

- chet elga mehnat migranti sifatida ketayotgan xotin-qizlarning ish beruvchilar bilan tuzadigan mehnat shartnomalarida ijtimoiy ta'minot bo'yicha qoidalarni kirgizish lozim;

- mehnat migrantlari bo'lgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ijtimoiy sug'urta tizimini, jumladan tibbiy sug'urtalash tizimini yaratish lozim. Migrant ayollarning mazkur ijtimoiy sug'urtadan foydalanishlari uchun ta'sirchan targ'ibot vositalaridan (bepul ijtimoiy va huquqiy konsalting xizmati ko'rsatish, brifinglar o'tkazish kabi) foydalanish ham ijobiy natijaga olib kelishi mumkin.

ISHTIROKCHILAR MAQOLALARI



Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,
*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot
instituti bo'lim boshlig'i*

OILALARDAGI BARQAROR IJTIMOIIY HAYOTNI TA'MINLASHDA GENDER TENGLIK TADQIQOTLARNI O'RGANISH VA TAHLIL ETISH

Annotatsiya. Maqolada keyingi yillarda oilalar barqarorligini ta'minlashda mamlakatimizda gender tenglik masalalari, uning tadqiqotlarda qanday tahlil etilishi xususiyatlari hamda oilada ijtimoiy hayotni ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy, axloqiy jihatdan o'ziga xosligini har tomonlama o'rganish dolzarb masalalardan biri ekanligi hamda o'g'il-qizlarni qadriyatlar tizimida tarbiyalashda erkak va ayolning teng huquqligi xususida ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: oila, gender, gender tenglik, tarbiya, ijtimoiy-ma'naviy qadriyat, qiz bola, o'g'il bola.

Аннотация. В статье в целях обеспечения стабильности семьи в ближайшие годы рассматриваются вопросы гендерного равенства в нашей стране, особенности того, как оно анализируется в исследованиях, а также комплексное изучение социально-экономических, правовых, образовательно-культурных, нравственное своеобразие в обеспечении социальной жизни в семье, является одним из актуальных вопросов,

как и ценности мальчиков и девочек.Выявлено о равных правах мужчин и женщин в воспитании в системе

Ключевые слова: семья, интересы мальчиков и девочек, гендер, гендерное равенство, образование, социально-моральные ценности, гендерное равенство.

Annotation. *In order to ensure family stability in the coming years, the article examines issues of gender equality in our country, the features of how it is analyzed in research, as well as a comprehensive study of socio-economic, legal, educational and cultural, moral uniqueness in ensuring social life in family, is one of the pressing issues, as are the values of boys and girls. It has been revealed that men and women have equal rights in education in the system*

Keywords: *family, interests of boys and girls, gender, gender equality, education, socio-moral values.*

Oila – jamiyatning tayanchi hisoblanib, u fuqarolik jamiyatining asosiy negizi, barqaror va tinch tuzilmasi sanaladi. Bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'naviy va axloqiy tarbiya topish bilan birga hayotga ijtimoiylashish jarayonini ilk qadamini shu maskanda topadi. Oila insonlarning tarbiyaviy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, axloqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi bo'lib, u qanchalik mustahkam va mukammal bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va o'zidan yetuk mukammal avlod tarbiya qiladi. Jamiyat asosi – oilalarning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi muhim ahamiyatga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyat va oilani barqarorligida gender tarbiyani amalga oshirishda oilada barqaror ijtimoiy hayotni ta'minlashdagi ayol va erkakning roliga e'tibor qaratish lozimdir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonunida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilab qo'yildi. Qonunda "Gender" tushunchasiga ta'rif berilib, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi deyilgan³.

Hozirgi kunda sir emas gender tengligi masalasi juda dolzarb mavzulardan biri bo'lib bormoqda. Aslida "Gender" tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha "genus", ya'ni "jins" ma'nosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari o'zlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit

³ file:///C:/Users/User/Downloads/oilalarda-gender-tenglikni-taminlashda-keksa-avlod-yoshlar-uchun-ibrat-k-zgusi-sifatida.pdf

va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratsa, gender esa – ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga qaratilgan.⁴

Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga davlat tashkilotlarida faoliyat olib borishlari uchun bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Gender tenglikni ta'minlashning huquqiy asosi eng avvalo 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, desak xato bo'lmaydi. Erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan ushbu deklaratsiyaning 1-moddasida: "Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak", deya belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin BMTning teng huquqli a'zosi qatorida bu xalqaro hujjatlarni e'tirof etdi va o'z zimmasiga xotin-qizlarga nisbatan kamsitish siyosatini o'tkazmaslik majburiyatini oldi hamda shu maqsadda xotin-qizlar manfaatlarining huquqiy himoyasini belgilovchi tegishli qonunlarini qabul qilib kelmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi.

Shuningdek, qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgandir.

Gender tenglikni ta'minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo'lida qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta Qonun, 4 ta Prezident Farmoni, 1 ta Prezident qarori, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.

"2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" loyihasi tayyorlangan holda uning yo'nalishlari BMTning

⁴ Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун // Муаллиф: В.М.Каримова. – Тошкент: "Фан ва технология", 2008. –170 б.

2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan va milliy gender qonunchiligiga moslashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlari, ya'ni eng asosiy qadam qo'yildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda qabul qilinishi ko'zda tutilgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasining gender huquqiy ekspertizasidan o'tkazilishi bo'yicha Nizom Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashlari yo'lga qo'yilishi ham mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasini gender huquqiy ekspertizasidan o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu esa ayol ham erkak ham teng huquqlilari inobatga olinishidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sog'ligini muhofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy olgan. Albatta, gender g'oyasiga ko'ra dunyoda ayol muammosi – inson muammosi, inson huquqi – ayol huquqidir. Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada bo'lishini ko'rsatib beradi.

Biz ayol huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil qilar ekanmiz, islom huquqidagi ayol huquqlariga yondashuvda o'ziga xos jihatlar mavjudligini ta'kidlamaslikning iloji yo'q.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu to'g'rida shunday so'zlar yozilgan: "O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi"⁵.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Insonning qaysi millatiga mansub ekanligi xaqida tasavvuri

⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2023.

faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shu bilan birga, hozirgi zamonda yangi qadriyatlar tizimlarini ham o'zimizga qabul qilyapmiz. Buning yorqin misolini oilada gender tenglik tamoyillarini o'rnatish va oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olishda ko'rish mumkin⁶.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Inson huquqlarini ta'minlash borasida olib borilayotgan siyosat, eng avvallo konstitutsiyamizning 18- va 46-moddalarida o'z ifodasini topdi, barcha kodekslarda va qonunlarda jinslar tengligiga va uni ta'minlashga alohida urg'u berildi.

Gender muammolarini hal etishning eng og'riqli tomoni ham oilaviy munosabatlar sohasiga tegishlidir. Chunki oila individ hayotining gender tenglik prinsipi to'liq qamrab ololmaydigan, qat'iy ravishda o'rnatilgan nisbiy ierarxik tizimli (ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar) munosabatlari doirasini o'z ichiga oladi. Odatda, bunday munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlariga qaraganda qarindoshlik aloqalari bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning zahirida ruhiy-emotsional yaqinlik, doimiy va barqaror bo'lgan o'zaro ishonch, o'ta xudbinona qarashlar doirasidan chetga chiqib ketuvchi samimiy va umumiy manfaatlarni anglash yotadi. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlar doirasida gender munosabatlarni joriy etishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shu bilan bir qatorda an'anaviy jamiyatlarda vaziyat biroz boshqacharoq. Bunday jamiyatlarda oila, hozircha, sezilarli darajadagi global sotsiomadaniy o'zgarishlarga duchor bo'lgani yo'q. Ammo gender aqidasi, xuddi G'arbdagi oila atrofida yuzaga kelgan muammolarga olib keluvchi o'zgarishlar uchun peshrav vazifasini o'tashi mumkin⁷.

⁶ Ўзбекистон қонунчилигида гендер тенглиги ва хотин-қизлар ҳуқуқлари кафолатлари. – Тошкент: “Zamin nashr”, 2020. – 96 б.; Ўрозалиева Г.Б. Гендер муносабатларининг аёллар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришга таъсири. Ижтимоий фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2006, – 23 б.

⁷ А.Қодирий номидаги Жиззах ДПИ ўқитувчиси С. Абдурахмонов “Гендер ижтимоий барқарорлик аспектида” / Тарих ва жамият журналининг 1-сони. – Тошкент, 2021.

Ayni vaqtda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratib berilayotgan ulkan imkoniyat va sharoitlar tufayli ayollarimiz davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning mavqei tobora ortib bormoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Zero oila tayanchi ayol ekan unga qancha ko'p imkoniyatlar yaratib berilsa, oilada barqaror ijtimoiy munosabatlar yaratib bera oladi.

Davlat hokimiyatining oliy organlarida, shuningdek, shahar, tuman hokimi, vazir, elchi kabi mas'uliyatli lavozimlarga ayollarning tayinlanayotgani ham ularga bo'lgan ishonch ham ma'suliyatning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bugun mamlakatimiz hayotiga daxldor bo'lgan qarorlarni qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortib bormoqdi. Natijada ularning boshqaruv sohalaridagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik sohasida 35 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 46 foizga etdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oilalardagi barqaror ijtimoiy hayotni ta'minlashda gender tenglik tadqiqotlarni o'rganish va tahlil **etishda** quyidagilarni inobatga olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bular:

- oilalar barqaror ijtimoiy hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muhitni yaratish lozim. Har bir vaziyat, xolat bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar vujudga keladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatlarini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabilidagi o'rgatish emas balki o'rnak bo'lsa bola o'sha harakatlardan andoza olib shakllanadi;

- qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik, gender, huquqiy, tibbiy, ijtimoiy, diniy va ma'rifiy, mafkuraviy, jinsiy, shaxs madaniyati, konfliktlar echimi, jismoniy tarbiya va sport, uy-ro'zg'or tutish, maishiy-gigienik, kiyinish odobi, oila an'analari, jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarida tarbiya topishlariga ahamiyat berish bilan birga yigitlarimizga ham bu ishlarni amalga oshirishni yo'lga qo'yish ya'ni ta'lim muassalarida alohida trenglar yoki xaftaliklar o'tkazib borish kerak;

- gender stereotiplarni bartaraf etishda hamda gender tenglikni ta'minlashda milliy qadriyatlarining rolini hisobga olgan holda yondashish lozim;

– oilada gender munosabatlarni shakllantirishning jamiyatdagidan farqli ravishda alohida milliy gender konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uning umumjamiyat darajasidagi gender munosabatlar bilan uzviyligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Har bir ota-ona bolasini barkamol inson bo'lib etishini xohlaydi. Farzandining ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaaddordir. Ota-onaning fuqarolik burchi O'zbekistonda oilalarda barqaror ijtimoiy hayotni ta'minlashda gender muammolarini kelib chiqmasligiga yo'l qo'ymaslikka taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo, mamlakat kelajagi uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim va hokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/4494849>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/4494709>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2021-yil 29-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017.
5. Oila psixologiyasi: darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M. Karimova. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008. –170 b.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil kishilar shahri. –Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
7. To'ychiyeva G.U. Ayol va siyosat. – Toshkent: 2004, – 64 b.
8. O'zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari kafolatlari. – Toshkent: "Zamin nashr", 2020. – 96 b.
9. O'rozaliev G.B. Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta'siri. Ijtimoiy fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2006. – 23 b.
10. A.Qodiriy nomidagi Jizzax DPI o'qituvchisi S. Abdurahmonov "Gender ijtimoiy barqarorlik aspektida" / Tarix va jamiyat jurnali, 1-son. – Toshkent, 2021.
11. Saydivaliev X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali, 1-son (2) 2022-yil. – B. 68.

12. Ismailova Z., Ismaylova R., Saydivalieva K., Tuychieva G. (2021) Development of gender entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and environmental engineering, Volume 284. <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
13. Saydivalieva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. 2-son (7), 2023. – B. 30.
14. Saydivalieva K.K. (2023) Development of Gender Statistics in Uzbekistan and its Importance // International Scientific Conference on "New Scientific Trends and Challenges" 20th February, Rome, Italy. <https://openconference.us/index.php/trends/article/view/541/493>



Tadjixodjayeva Oftobxon Anvarovna,
*Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi
markazi xodimi*

O'ZBEKISTONDA MOJAROLI HUDUDLARDAN QAYTARILGAN BOLALAR VA AYOLLARNI JAMIYATGA MOSLASHTIRISHNING HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaqin Sharqdagi qurolli mojaroli hududlardan Vatanga qaytarilgan bolalar va ayollarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilishda O'zbekiston tajribasi ochib berilgan. Mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ayollarni jamiyatga samarali moslashtirish va reabilitatsiya qilish borasida olib borilgan ishlar mazmuni keltirilgan. Shuningdek, og'ir ijtimoiy vaziyatlarda bo'lgan repatriant oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda majmuaviy ijtimoiy xizmat ko'rsatilishini masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: repatriatsiya, reabilitatsiya va reintegratsiya, mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ayollar, ijtimoiy himoya, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jamiyatga moslashtirish.

Аннотация. В статье представлен опыт Узбекистана в реабилитации и реинтеграции репатриированных детей и женщин, вернувшихся из зон вооруженных конфликтов Ближнего Востока. Раскрыты эффективные направления работы с репатриированными детьми и женщинами в их успешной адаптации и реабилитации.

Описаны социальные услуги по оказанию помощи и поддержке семьям-репатриантам, оказавшимся в трудной жизненной ситуации.

Ключевые слова: репатриация, реабилитация и реинтеграция, дети и женщины, репатриированные из зон конфликтов, социальная защита, социальная услуга, социальная поддержка, социальная адаптация

Annotation: *This article reveals the experience of Uzbekistan in the rehabilitation and reintegration of children and women returned to the homeland from armed conflict areas in the Middle East. The content of the work carried out on the effective adaptation and rehabilitation of children and women returned from conflict areas to the society is presented. Also, issues of complex social service provision in social support of repatriate families in difficult social situations are covered.*

Keywords: *repatriation, rehabilitation and reintegration, children and women returned from conflict areas, social protection, social service, social support, adaptation to society.*

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamiyat va davlat oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bolalar va ayollarni ijtimoiy himoyasi, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq ravishda amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Ayniqsa, gender tenglikni ta'minlash va ayollarning turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish, ayollar huquqiy madaniyatini oshirish kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini yanada kegaytirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi qarorining birinchi maqsadi ham kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy kuchli davlatning ko'rsatkichlaridan biri uning o'z aholisiga e'tibori, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlari bilan ham belgilanadi. Shu o'rinda 2019-yilda boshlangan "Mehr" insonparvarlik operatsiyasi buning yaqqol dalilidir. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mamlakat tarixida ilk bor "Mehr" deb nomlangan maxsus insonparvarlik operatsiyasi doirasida

qurolli mojaroli hududlarda jabrlangan yuzlab vatandoshlarimiz Suriya, Iroq va Afg'onistondan vatanga qaytarildi.

“Mehr” operatsiyasining asosiy maqsadi – turli yo'llar bilan Yaqin Sharqda qurolli mojaroli hududlarga bilib-bilmay borib qolgan o'zbekistonlik bolalar va ayollarni vatanga qaytarishdan iborat.

Afsuski, noto'g'ri da'vatlarga ishonib yoki aldov yo'li bilan qurolli mojarolar hududlarga borib qolgan oilalarning barchasi turli qiyinchiliklarga duchor bo'lganlar. Xususan:

- bolalar ota-onasidan ayrildilar;
- voyaga yetmagan o'g'il bolalar jangovor harakatlarda qatnashishga majburlandilar;
- voyaga yetmagan qizlar turmushga berib yuborildi;
- bolalar va ayollar jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikka uchradilar;
- bolalar va ayollar jarohat oldilar;
- bolalar majburiy ravishda onalaridan alohida yashadilar;
- ta'lim olishdagi to'siqlarga duch keldilar;
- jazoni ijro etish muassasalariga tushdilar;
- turmush o'rtoqlari jang maydonlarida halok bo'ldi;
- boshpanasiz, och-nahor va o'ta og'ir sharoitlarda yashashga majbur bo'ldilar.

Suriyaning shimoliy-sharqidagi lagerlardagi bolalarning 90 foizi 12 yoshgacha, 50 foizi esa 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni tashkil etgan. U yerda istiqomat qilayotganlarning oziq-ovqat, tibbiy yordam, toza suv va boshqa asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Hozirda Suriyaning shimoliy-sharqida ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi gumanitar vaziyat va ular bilan bog'liq noqulay yashash sharoitlarining yaxshilanishi kechikmoqda. Buning oqibatida aholi uy-joy, oziq-ovqat, ta'lim, sog'liqni saqlash, adolatli sudlov xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidan, ustunlik qilayotgan zo'ravonlik va xavfsizlik yetishmasligidan aziyat chekishmokda [2].

Islom davlati tomonidan hududiy mulklar yo'qotilgandan so'ng minglab ayollar va bolalar o'zboshimchalik bilan Suriya va Iroqning shimoli-sharqidagi lagerlarda ushlab turishga duchor qilingan. BMT ekspertlarining fikriga ko'ra, ular “xalqaro huquqqa muvofiq, ularning ixtiyorida samarali vositalar bo'lmagan holda qiynoq yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga tenglashtirilishi mumkin bo'lgan

sharoitlarda zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, yomon muomala va mahrumlikka duchor qilinganlar”⁸.

O‘zbekiston o‘zining fuqarolarini qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, ularning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli himoya qilinishini isbotladi. Zero, **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida** O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlashi belgilab qo‘yilgan [3].

Hukumatimiz nechog‘lik murakkabligiga qaramay, qurolli mojaroli hududlardan jabrlangan va muammolar qurshovida qolib ketgan bolalar va ayollarga nisbatan yuksak insonparvarlik yordamini ko‘rsatdi. Bu murakkab ishlarning mohiyati insonlarga nisbatan Mehr, muhabbat, kechirimlilik, ularga qaytadan yashash umidini berish, tinch va xotirjam hayot bilan ta‘minlash, bag‘rikenglik, farzandlar kelajagi uchun qayg‘urish va eng asosiysi, adashgan insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish kabi ezgu amallardan iborat desak to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston 5 marotaba amalga oshirgan “Mehr” insonparvarlilik operatsiyasi doirasida **530** dan ortiq ayollar va bolalarni repatriatsiya qildi⁹. Jami repatriatsiya qilinganlar ichida **300** dan ortig‘i voyaga yetmagan bolalar va ulardan **39** nafari chin yetim hisoblanadi.

Shu o‘rinda repatriatsiya atamasiga oydinlik kiritib o‘tamiz. **Repatriatsiya** (lot. repatriatio – vatanga qaytish) asirlar, qochoqlar va ko‘chirma bo‘lganlarni o‘z Vataniga qaytarish degan ma‘nolarda qo‘llaniladi¹⁰. **Repatriant** – (lot. repatriatio – vatanga qaytish) repatriatsiya tartibida vatanga qaytarilgan shaxs¹¹.

Markaziy Osiyoda O‘zbekiston bilan bir qatorda Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari ham mojaroli hududlarda jabrlangan fuqarolarini Suriya va Iroq davlatlaridan repatriatsiya qildilar. Qozog‘iston “Jusan” operatsiyasi doirasida Suriya va Iroqdan 607 nafar fuqarolarini qaytarib olib keldi va ulardan 400 nafari bolalarni tashkil qiladi [4]. Tojikiston 2019-yildan buyon

⁸ <https://cabar.asia/ru/uzbekistanskaya-model-reabilitatsii-i-reintegratsii-grazhdan-iz-zon-konfliktov-v-sirii-i-irake?pdf=52372>

⁹ <https://crss.uz/2021/12/11/reabilitatsiya-i-reintegratsiya-na-primere-zhenshhin-i-detej-vozvrashheniya-v-uzbekistan-iz-zon-boevyx-dejstvii/>

¹⁰ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

¹¹ https://encyclopediya_prava.academic.ru/5034

300 ga yaqin fuqarolarini Suriya va Iroqda qaytardi¹². Qozog'iston "Meerim" deb nomlangan maxsus operatsiya doirasida 79 nafar bolalarni Iroqdan qaytardi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bolalar va ayollarni mojaroli hududlardan repatriatsiya qilish bo'yicha etakchilik qilmoqdalar. Markaziy Osiyoda faqat Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekiston o'z fuqarolarini mojaro bo'layotgan zonalaridan vataniga qaytardi. Har bir davlat o'z yondashuvidan foydalanganligini ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston repatriantlarning ijtimoiy reintegratsiyasini amaliyotda qo'llamoqda¹³.

O'zbekistonda mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va oilalarning reabilitatsiya va reintegratsiyasi

Bugungi kunda O'zbekistonda mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ayollarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilishda tizimli va samarali ish yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda vatanga qaytarilgan bolalar va ayollarni jamiyat hayotiga moslashuvi, stigma va diskriminatsiyaning oldini olish, jabrlanganlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, gender xususiyatlarni hisobga olish va keng qamrovli ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatilishi borasidagi masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston o'zining fuqarolarini mojaroli hududlardan qaytarish va ularning huquqlarini ta'minlash borasidagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha olib borayotgan siyosati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholanganligini aytib o'tish, o'rinlidir. Jumladan, 2021-yil 7-dekabr kuni BMTning inson huquqlari bo'yicha mutaxassisi OAV vakillari bilan o'tkazilgan matbuot anjumanida Ni Aolayn ayollar va bolalarning mojaroli hududlardan qaytishini olqishlab, islohotlarni yanada kuchaytirishni tavsiya qildi. *"Men mamlakatda 2019-yil may oyidan boshlab hukumat tomonidan yuzlab ayollar va bolalarni Suriya hamda Iroq va Afg'onistondagi jang maydonlaridan olib chiqib ketish va reintegratsiya qilish bo'yicha amalga oshirgan Mehr operatsiyalarini yuqori baholayman"*, – dedi Ni Aolayn¹⁴.

O'zbekistonning bolalar va ayollarni mojaroli hududlardan qaytarib olib kelish va ularni jamiyatga moslashtirish bo'yicha tajribasini o'rganish maqsadida mamlakatimizga Qirg'iziston, Turkmaniston, Maldiv Respublikalarining

¹² <https://mfa.tj/ru/main/view/12833>

¹³ <https://cabar.asia/ru/uzbekistanskaya-model-reabilitatsii-i-reintegratsii-grazhdan-iz-zon-konfliktov-v-sirii-i-irake?pdf=52372>

¹⁴ <https://www.facebook.com/xabar.uz/posts>

delegatsiyalari tashrif buyurdi¹⁵. 2022-yilda esa Maldiv Respublikasi Ichki ishlar vaziri Shayx Imron Abdulla boshchiligidagi 17 nafar hukumat vaqillaridan iborat delegatsiyasi O'zbekistonga tashrifi mobaynida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazida bo'lib, O'zbekistonda vatanga qaytarilgan ayollar va bolalarni reintegratsiya qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlarni yuqori baholadi.

Mehr operatsiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlarning muhim jihatlaridan yana biri "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya talablari muvofiq va boshqa milliy qonunchilik hujjatlarida ilgari surilgan vazifalarni to'liq amalga oshirilganligidir. **Birlashgan Millatlar Tashkilotining** "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya asosiy prinsiplari bolalarning barcha huquqlarini ularning eng yaxshi manfaatlaridan kelib chiqib kamsitilmasdan ta'minlanishini targ'ib etadi (2-modda). Bolalar o'z hayotlarining barcha jabhalarida jumladan, jismoniy, ruhiy, aqliy, ijtimoiy va madaniy sohalarda yashash va rivojlanish huquqiga egadirlar (6-27 moddalar). Bolalarga tegishli hamma qarorlar yoki harakatlarda bolalarning manfaatlar va fikrlari hisobga olinishi kerak (3-modda) [6].

O'zbekistonda mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ularning oilalarini reabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha bir nechta yo'nalishlarda alohida ishlar olib borilmoqda:

- 2021–2022-yiillarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qurolli mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va oilalarni jamiyatga moslashtirish va reabilitatsiya qilishga qaratilgan Harakatlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Unga ko'ra, hududlardagi hokimiyat vakillari, ta'lim muassasalari pedagoglari, sog'liqni saqlash bo'limlari vakillari, ichki ishlar, sud organlari, mahallalardagi faollar va boshqa mutaxassislar o'zlarining vakolotlari doirasidagi xizmatlarni amalga oshirmoqdalar;

- repatriatsiya qilingan bolalar va ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha Davlat va nodavlat tashkilotlari vakillaridan iborat ishchi guruh tuzildi;

- vatanga qaytarilgan bolalar va ayollarga huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy yordamni ko'rsatish tizimini yaxshilashga yo'naltirilgan tashkiliy chora-tadbirlar ko'rildi. Ularga keng qamrovli tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa xizmatlar ko'rsatilishi ta'minlandi;

¹⁵ <https://xs.uz/uzkr/post/otgan-jilda-chet-elda-ota-ona-qaramogisiz-qolib-ketgan-43-nafar-bola-ozbekistonga-qajtarib-olib-kelindi>

– reabilitatsiya va reintegratsiya jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislarning salohiyatlarini oshirishga qaratilgan ishlar tashkil qilindi. Bu yo‘nalishda mutaxassislarning ish tajribalari bo‘lmaganligi sababli xalqaro ekspertlar tomonidan repatriant oilalarga yordam ko‘rsatishda psixik salomatlik va psixoiqtimoiy yordam masalalariga bag‘ishlangan treninglar tashkil qilindi. Bu kabi treninglar mutaxassislarning ishida katta yordam berdi. Mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ayollarga birinchi psixologik yordam ko‘rsatish, urushning bolalarga ta’siri, mojaroli hududlarda jabrlanganlar bilan ishlashning o‘ziga hos jihatlari, travmaning ruhiy ijtimoiy farovonlikka salbiy ta’siri borasida mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalari oshirildi. Natijada O‘zbekiston repatriantlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilishning o‘ziga hos tajribasiga ega bo‘ldi.

Repatriatsiya va reintegratsiya o‘z fuqarolarini vataniga qaytarishga ko‘maklashayotgan davlatlar uchun kuchli vosita bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin. Ayni paytda evropa Ittifoqida bu sohada umumiy qabul qilingan strategiya mavjud emas¹⁶. Haqiqatan qurolli mojarolar davom etayotgan hududlardan o‘z fuqarolarini vatanga qaytarib olib kelish masalalari bilan kam sonli davlatlar shug‘ullanmoqda, deyish mumkin. Shu nuqtai nazardan, repatriantlarni ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish, ularga zo‘ravonlik va psixologik travma oqibatlarini bartaraf etishda yordam berish, jamiyat hayotiga qayta reintegratsiya qilish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash borasidagi tajriba yetarli emasligi ushbu yo‘nalishda tizimli ishlarni takomillashtirish alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy ish xodimi va psixologlar tomonidan olib borilgan reabilitatsiya va reintegratsiya ishlari

Repatriatsiya jarayoni keng qamrovli yondashuvni talab qilganligi bois davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini talab qiladi.

2021–2022-yillarda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi hamda UNICEF xalqaro bolalar jamg‘armasi mojaroli hududlardan qaytarilgan ayollar va bolalarni psixoiqtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlik doirasida “Mojarozonalaridan, birinchi navbatda, Suriya va Iroqdan qaytarilgan Markaziy Osiyo davlati fuqarolari uchun evropa Ittifoqi va BMT ko‘magi” nomli loyiha doirasida o‘tgan yillarda 15

¹⁶ <https://cabar.asia/ru/uzbekistanskaya-model-reabilitatsii-i-reintegratsii-grazhdan-iz-zon-konfliktov-v-sirii-i-irake?pdf=52372>

oy davomida repatriant oilalarni jamiyatga moslashtirish va rehabilitatsiya qilish borasida hamkorlikda ishlar olib borildi. Ijtimoiy ish xodimlari va psixologlar tomonidan **1000** ga yaqin konsultativ xizmatlar ko'rsatildi. Mutaxassislar repatriant bolalar va ularning oilalari bilan ehtiyojlarni baholash, rejalashtirish, xizmatlarni ko'rsatish va muvofiqlashtirish, erishilgan ijobiy o'zgarishlarni baholashga qaratilgan kompleks ishlarni olib bordilar. Oilalar bilan chuqur o'rganish ishlari "Keys-menejment amaliyoti standartlari"ga muvofiq intervyu va kuzatuv metodlaridan foydalangan holda olib borildi.

Inqirozli vaziyatlarda bolalar va ayollarga 4 ta (favqulodda vaziyatda psixik salomatlik va psixoiijtimoiy yordam) darajada xizmat ko'rsatish ishlari olib borildi.



1-rasm

1-daraja. Asosiy ehtiyojlarning qondirilishi: xavfsizlik va himoya, hayotiy zarur xizmatlar, birinchi psixologik yordam, oilaning yaxlitligini saqlab qolish, bolalar uchun ko'ngilochar-madaniy tadbirlar, zarur ma'lumotlarni olish/foydalanishga yordam berish.

2-daraja. Oila va jamoatchilik ko'magi: qarindoshlarni izlash, oilani birlashtirish, shunga o'xshash qiyinchiliklarni boshdan kechirgan insonlarning o'zaro ko'magi, ta'limiy va boshqa ko'ngilochar tadbirlari.

3-daraja. Maqsadli xizmatlar: ijtimoiy ish (keys-menejment), konsultatsiya, maqsadli mutaxassislarning xizmatlari – shifokor, yuristlar, pedagoglar, boshqa mutaxassislar.

4-daraja. Ixtisoslashtirilgan xizmatlar: psixik salomatlik sohasidagi mutaxassislar tomonidan ko'rastiladigan klinik xizmatlar (travma bilan

ishlashga qaratilgan psixologik yoki psixiatrik xizmatlar, psixik buzilishlarni dorilar bilan davolash, psixoaktiv moddalar bilan davolash.

Inqirozli vaziyatlarda yuqoridagi 4 ta darajadagi xizmatlarni ko'rsatilishi repatriantlarning reintegratsiyasi uchun asosiy bosqich hisoblanadi. Bunda repatriantlarning aossiy ehtiyojlarini qondirilishi, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tiklash, oila va mahalliy hamjamiyat bilan aloqalar, majmuavviy ijtimoiy xizmatlar, psixoijtimoiy xizmatlarni ko'rsatilishi, surunkali yoki boshqa kasalliklarning mavjudligi yuzasidan ko'riladigan barcha zaruriy choralar nazarda tutiladi.

Toshkent viloyati va Toshkent shahrida yashovchi 100 nafar repatriant bolalar va ayollarning ehtiyojlari o'rganilganda quyidagi muammolar aniqlandi:

- *sog'lig'i* – surunkali kasalliklar, jarohatlar, nogironlik, nevrologik va uyqu buzulishlari, ovqatlanishning buzilishi, bolalarda enurez;

- *ta'lim* – bolalar ta'limida fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, onalarni o'z vaqtida o'rta ta'limni tugatmaganligi;

- *psixologik* – yangi muhitga moslashuvdagi va munosabatlardagi qiyinchiliklar, oila a'zolari o'rtasidagi nizoli holatlar, boshidan o'tkazgan og'ir ruhiy kechinmalar, ayollarda o'zi va farzandlariga g'amho'rlik qila olmaslik, aybdorlik hissi, ishonchsizlik, tashvishlanish, tushkunlik, bolalar o'rtasida diqqat jamlashdagi qiyinchiliklar, nutqdagi kamchiliklar va psixik rivojlanishdan orqada qolish.

- *ijtimoiy* – uy-joyni yo'qligi, bolalarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqa tayinlanishi bilan bog'liq muammolar, daromadning yo'qligi, kasb-hunar va mehnat ko'nikmalariga ega emasligi, shaxsiy hujjat bilan bog'liq masalalardagi muammolar.

Repatriant bolalar va ularning oilalari ehtiyojlarini aniqlash orqali ularga keng qamrovli xizmatlarni ko'rsatilishi natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- **77 nafar** bolalarga psixologik yordamlar ko'rsatildi (psixologik konsultatsiyalar, psixoterapiya – bolalarni maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga moslashishi, hissiy holatni barqarorlashtirish, qo'rquv, jarohatlar bilan ishlash, oilada munosabatlarni o'rnatish, yaqinlarini yo'qotishni boshdan kechirish holatlarida yordamlar);

- **30** nafar ayolga psixologik yordamlar ko'rsatildi (psixologik konsultatsiyalar, psixoterapiya – hissiy holatni barqarorlashtirish, stress bilan

ishlash, tashvishlanish, oila va jamiyatga moslashish bilan bog'liq muammolar, bolalarga ta'lim jarayonida yordam berish va yaqinlarini yo'qotish holatlarida yordamlar);

- **20** ta oilada oilaviy munosabatlar yaxshilandi (bolalar va ota-onalar, bolalarning qonuniy vakillari va boshqa qarindoshlar o'rtasida);

- **44** nafar bolaning psixologik holatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi – (uyqu yaxshilandi, ijobiy hissiyotlari ortdi, xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar, do'stlar bilan muloqoti yaxshilandi, ta'limda o'zlashtirish ko'rsatkichlari yaxshilandi);

- **28** nafar ayollarning psixologik holati yaxshilandi (normal uyqu, kayfiyatni yaxshilanishi, faollik, bolalar va oila a'zolari bilan munosabatlarni yaxshilanishi, kelajakka umid bilan qarash)¹⁷.

Ayollar bilan o'tkazilgan suhbatlarda *gender masalalarga* oid muammolar ham borligi aniqlandi. Ba'zi oilalarda O'zbekistondan chiqib ketish masalasida asosan erkaklar tomonidan qarorlar qabul qilinganligi va bu masalada "*er qayerda bo'lsa, xotin ham shu yerda bo'lishi kerak*" kabi yozilmagan qonunlarga amal qilganliklarini aytib o'tdilar. Bunda shunday xulosaga kelish mumkinki, ayollar o'zlarining hayotiy masalalarini hal qilish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda erkaklar bilan teng emasliklari holati namoyon bo'lmoqda. Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi belgilangan [9].

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, repatriant oilalarning ehtiyojlarini o'rganish jarayonida ayollarning ichida o'rta ta'limni tugatmaganlar ham uchradi. Bu kabi oilalarda ota-onalar tomonidan qizlarini ko'chaga chiqarmay hech qayerda o'qitmay tezroq "*joyi chiqsa turmushga berish*" masalalariga urg'u berilgani bilan bog'lash mumkin. Oilada qiz bolani ta'lim olishiga cheklovlar qo'yishning oqibatida ba'zi ayollar savodsiz bo'lib qolganlar. Endilikda esa shu qizlarning bir nechta farzandlari bo'lib, ularni boqish, kiyintirish, tarbiyalashga majbur bo'lib qoldilar. Qaytib kelgan ayollar ichida bilimi, kasb-hunari bo'lmagani uchun tushkunlikka tushib hayotda noto'g'ri qarorlar qabul qilish holatlari ham kuzatildi. Chunki "*oilani boqish erkak kishining vazifasi*" sen ayol sifatida bunga majbur emassan deb fikrlovchi oilada ulg'aygan qizlar majburiyatni

¹⁷ 2021-2022 йилларда “Можаро зоналаридан, биринчи навбатда, Сурия ва Ироқдан қайтарилган Марказий Осиё давлати фуқаролари учун Европа Иттифоқи ва БМТ кўмаги” номли лойиҳа доирасида амалга оширилган ишлар натижаси юзасидан ҳисобот

zimmalaridan soqit qilib, boshqalarga yuklashni afzal ko'rdilar. Oilaning ta'minoti uchun turmush qurush yoki boqimandalik kayfiyatiga o'tib olish va oila tebratish majburiyatini o'z zimmasiga olishni istamayotganlar ham bor. Lekin bu muammoga yechim bo'la olmaydi. Hayotda yetarli bilimga ega bo'lmaslik ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”**gi Farmonining 69-maqsadida “Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan”¹⁸.

Ta'kidlash joizki, Xalq ta'limi vakillari tomonidan o'z vaqtida ko'rsatilgan ta'limiy yordamlar natijasida repatriant ayollar maktabda ekstrnat imtixonlarni topshirish orqali 9–11-sinf shahodatnomasini olishga muvaffaq bo'ldilar. Bugungi kunda ular orasida oliy o'quv yurtida kirib, talaba bo'lib bilim olayotganlar ham bor.

Hozirgi kunda eng ko'p e'tibor berilayotgan masalalardan biri ham *gender tenglik* va *xotin-qizlar ta'limiga* qaratilmoqdaki, toki xotin-qizlar o'zlarining muhim hayotiy jarayonlarda qarorlar qabul qilib, o'z huquqlarini yetarli darajada talab qila olsinlar. Xotin-qizlarning ta'lim olishi o'zining ustida ishlashi va rivojlanishi shubhasiz, oilaning farovonligiga balki mamlakat taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytib o'tish kerakki davlatimiz tomonidan mojaroli hududlardan qaytarilgan fuqarolarni jamiyatga samarali moslashuvini ta'minlash borasida ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtirilgan holda idoralararo hamkorlikda davom ettirish reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qiladi.

Repatriant oilalarga hayotiy muhim bo'lgan xizmatlarni olishlarida va jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun to'siqlarni yengib o'tishlarida ko'makli kuzatuv ishlarini olib borish va keng qamrovli psixoiijtimoiy xizmatlarni taqdim etish reintegratsiya ishining samaradorligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kuzatishlar natijasida mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ayollarni jamiyatga moslashtirishni yanada yaxshilashga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

¹⁸ <https://lex.uz/docs/5841063>

- maktab yoshidagi bolalar o'rtasida ta'limni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, diqqat yetishmovchiligi, nutqdagi kamchiliklar va ruhiy rivojlanishdan orqada qolish kabi muammolar reabilitatsiya xizmatlarini amalga oshirish zaruriyatini anglatadi;
- yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan oilaga qarindoshlari tarbiyasiga berilgan repatriant bolalarning farovonligini kuzatib borish;
- repatriant ayollarning ta'lim olishi va kasb-hunar egallashiga alohida e'tibor qaratish. Ayniqsa, boqimandalik kayfiyatini minimallashtirish, ulardagi nosog'lom steriotiplarni pozitiv tomonga o'zgartirish;
- repatriant bolalar va ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada yaxshilash uchun reintegratsiya jarayonida qatnashayotgan mutaxassislarning ish samaradorligiga erishishda ijtimoiy ish xodimi kompetensiyasi va key-menejment amaliyoti bo'yicha xabardorligini oshirish;
- reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlarini ishlab chiqishda metodologik bazani shakllantirish;
- ayollarni mojaroli hududlarga borib qolishiga sabab bo'lgan omillarning tahlilini ko'rib chiqish va bunda gender xususiyatlarini hisobga olish;
- mojaroli hududlardan qaytarilgna bolalar va ularning oilalarini jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashda ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning natijadorligini baholash va monitoringni olib borish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-sonli Farmoni.
2. 18–20-iyul 2023-yil Toshkent, "Усиленный психо-социальной поддержки и повышение устойчивости возвращенцев из зон конфликтов" mavzusidagi seminar tarqatma materiallaridan.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 156 b.
4. Рекомендации по освещению репатриации, реабилитации, реинтеграции детей из конфликтных зон. Не навреди объясни! – 2022 // <https://prevention/kg>
5. O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimiga oid terminologik lug'at-ma'lumotnoma / V.Alimova va b. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 112 b.
6. BMT Bosh Assambliyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-qarori bilan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya.
7. Lyudmila Kim. Keys menejment amaliyoti standartlari: Ijtimoiy xizmatlarga muhtoj insonlar va oilalar bilan ishlash yuzasida qo'llanma, 2019.

8. Руководство МПК по психическому здоровью и психосоциальной поддержке в условиях чрезвычайной ситуации, 2007. 26-бет. Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси // <https://lex.uz>
9. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
10. Ismailova Z., Ismaylova R., Saydivalieva K., Tuychieva G. Development of gender entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and environmental engineering. Volume 284, (2021). <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
11. Saydivalieva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 2 (7), 2023. – B. 30.
12. Saydivalieva K.K. Development of Gender Statistics in Uzbekistan and its Importance // International Scientific Conference on "New Scientific Trends and Challenges" February 20, 2023, Rome, Italy. <https://openconference.us/index.php/trends/article/view/541/493>



Nurullayeva Umida Nuriddinovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktranti
e-mail: nurullayevaumida649@gmail.com

JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR HUQUQIY TENGLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari, dunyoda va mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, mehnat faoliyati va ta'limdagi gender tenglik masalasi tahlili amalga oshirilgan. Xulosalar asosida muallif tomonidan istiqbolda olib borilishi lozim bo'lgan amaliy chora-tadbirlar taklif qilingan.

Tayanch so'zlar: xotin-qizlar, gender tenglik, gender zo'ravonlik, baholash mezonlari, stereotiplar, segregatsiya, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish.

Аннотация. В данной статье анализируются международные и национальные правовые основы поддержки женщин, поддержка женщин в мире и в нашей стране, в том числе вопрос гендерного равенства в сфере труда и образования. На основе выводов автором предложены практические меры, которые следует предпринять в дальнейшем.

Ключевые слова: женщины, гендерное равенство, гендерное насилие, критерии оценки, стереотипы, сегрегация, поддержка и защита женщин.

Annotation. *International and national legal basis of support for women, support for women in the world and in our country, and the issue of gender equality in the sphere of labor and education are analyzed in this article. Based on the conclusions, the author proposes practical measures to be taken in the future.*

Keywords. *women, gender equality, gender-based violence, evaluation criteria, stereotypes, segregation, support and protection of women.*

Xotin-qizlar dunyo aholisining yarmini, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 49,58 foizini (3,9 milliard) tashkil qiladi. Erkakalar esa 50,42 foizini (3,97 milliard) tashkil qilgan holda ayollarga qaraganda 65,5 millionga ko'proqdir. 1957-yilgacha ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq edi. Yillar davomida erkaklar va ayollar nisbati o'zgardi: 1950-yildagi 100 ayolga 99,7 erkakdan 2021-yilda maksimal 101,7 erkakka ko'tarildi [1].

Insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lgan gender tengligi jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish negizida inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi. Ayollarni jamiyatga jalb qilish samaradorlik va iqtisodiy o'sishni oshirishi ko'p bora isbotlangan amaliyot hisoblanadi.

Gender tenglikni ta'minlash maqsadida gender asosidagi zo'ravonlik va kamsitishning barcha ko'rinishlariga barham berish, ayollar va qizlar, erkaklar va o'g'il bolalarning ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy resurslardan teng foydalanishini ta'minlash, fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur. Bu umumiy va rahbarlik lavozimlarida ishga joylashish imkoniyatlariga ham tegishli masala hisoblanadi.

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq gender tengligi xalqaro inson huquqlari huquqining bir qismiga aylandi. Inson huquqlari tarixidagi ushbu muhim hujjatda "barcha insonlar erkin, qadr-qimmati va huquqlari bo'yicha teng tug'iladilar" va "har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklardan irq, din yoki boshqa maqomga ko'ra, ya'ni hech qanday farqlarsiz foydalanadi.

1979-yilda BMT Bosh Assambleyasi Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani (CEDAW) qabul qildi. U ko'pincha ayollar huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill deb ataladi. Konvensiyaning 30-moddasida "ayollarga nisbatan kamsitish holatlari aniq belgilab qo'yilgan va bunday kamsitishlarga barham berish bo'yicha milliy darajadagi harakatlar

tartibi” belgilab qo’yilgan. Konvensiya madaniyat hamda an’analarni mamlakatdagi gender rollari va oilaviy munosabatlarni shakllanishida ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida ko’rib chiqadi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish: “Gender tengligiga erishish, ayollar va qizlarning huquqlarini kengaytirish zamonamizning tugallanmagan vazifasi va bugungi kunda dunyodagi inson huquqlari sohasidagi eng katta muammodir”, deya bejiz ta’kidlamagan. Chunki bu sohada bir qator ishlar amalga oshirilishi lozim. Misol uchun 2014-yilda 143 davlat konstitutsiyaviy ravishda erkaklar va ayollar o’rtasidagi tenglikni kafolatlagan bo’lsa, 52 mamlakat bu amaliyotni qo’llamagan [2].

O’zbekiston Respublikasi 1991-yilda mustaqillikga erishgach, gender tengligini Konstitutsiyada mustahkamlab qo’yilgan asosiy demokratik tamoyilga aylantirdi. Mamlakat inson huquqlari bo’yicha 60 dan ortiq xalqaro shartnomalarga va ba’zi xalqaro tashkilotlarga qo’shilgan bo’lib, ular bilan gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. O’zbekiston Xotin-qizlar qo’mitasi mamlakatimizda gender tengligini ta’minlashda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O’zbekistonda gender tengligining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari tahlili iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog’liq keng ko’lamli masalalarni qamrab oladi.

O’zbekistonda erkaklar va ayollarning teng huquqliligini ta’minlash sohasidagi qonunchilik va huquqiy baza muttasil takomillashtirilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi O’RQ-561-son [3] hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi O’RQ-562-son Qonunlari [4] kuchga kirdi. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi sohadagi vaziyatni yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim qadam bo’ldi. Ushbu qonunlar ayollar va erkaklar uchun mehnat munosabatlarida ham, uy ishlarini bajarishda ham, ijtimoiy kafolatlar olishda ham teng huquq va imkoniyatlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, mazkur ikki Qonun jinsga qarab to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita kamsitishlarga yo’l qo’ymaydi [5].

Gender tengligini ta’minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biridir. Iqtisodiy o’sish, gender tengligining yuqori indeksi va Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) bir-biri bilan chambarchas bog’liq. Chunki

gender tengligiga erishish ayollar va erkaklarning ahvolini yaxshilashga, oilaning mustahkamlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, jamiyatdagi iqtisodiy o'sish va farovonlikka hissa qo'shiladi.

Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonunlar – 2019" nomli tadqiqotiga ko'ra [6], dunyoda faqat oltita davlat gender tengligiga erishgan. Tadqiqot uchun ekspertlar 187 mamlakatning huquqiy asoslarini baholab, u yerda so'nggi o'n yil ichida qanday o'zgarishlar kiritilgani va bu xotin-qizlar huquqlariga qanday ta'sir qilganini aniqlashgan. Qonunchilikni baholash uchun sakkizta asosiy ko'rsatkich hisoblangan: ish haqi va bandlik, tadbirkorlik, ayollar mulkini boshqarish, pensiyalar, harakat erkinligi, nikoh va bolalar. Masalan, "Farzandli bo'lish" ko'rsatkichi onalik, otalik va ota-onalik to'g'risidagi qonunlar, shuningdek, ayolning oila qurish qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tug'ruq ta'tillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini baholashni aks ettiradi. Shunga ko'ra Belgiya, Daniya, Fransiya, Latviya, Luksemburg va Shvetsiya gender tengligi ta'minlangan (100 ballga baholangan) mamlakatlar sifatida tan olingan [7]. Tadqiqot natijasida Jahon banki iqtisodiy rivojlanish darajasi va gender tengligi o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. 90 va undan yuqori ball to'plagan 39 ta davlatdan 26 tasi yuqori daromadli mamlakatlar bo'lib, YaIM yiliga kishi boshiga 12 000 dollardan oshadi.

Dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, gender tengsizlik ham iqtisodiy, ham siyosiy sohada saqlanib qolmoqda. O'nlab yillar davomida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ayollar hali ham mehnat bozorida erkaklarga qaraganda o'rtacha 24 foizga kam maosh oladi. Jahon bankining katta iqtisodchisi Uilyam Zeys Markaziy Osiyodagi uchta rivojlanayotgan davlatda: O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda erkaklar va ayollar ish haqlarining tengligi bo'yicha tadqiqot o'tkazdi [8]. Tadqiqot muallifi rasmiy statistikaga tayangan holda ushbu davlatlarda erkaklar va ayollarning ish haqi o'rtasidagi tafovut jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori ekanligini aniqlagan. Qozog'istonda 22 foiz, Qirg'izistonda 25 foiz va eng yuqori ko'rsatkich O'zbekistonda – 39 foiz ekanligi ma'lun bo'ldi. Uilyam Zeys "teng ish uchun teng haq to'lash" normasi O'zbekistonda 2022-yil oxirida Mehnat kodeksiga kiritilganini, Qirg'iziston va Qozog'istonda qonunchiligida esa hozircha bunday norma yo'qligini alohida ta'kidlagan va teng maoshga oid huquqiy me'yorlarning qabul qilinishi erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi ish haqi farqi muammosini faqat qisman hal qilishini, asosiysi eskicha dunyoqarashga qarshi kurashmasdan turib, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tafovutni bartaraf etishning iloji yo'qligiga urg'u bergan. Shu o'rinda ish haqidagi tafovutlarning sababi sifatida yana ikki holatni

keltirish mumkin: birinchidan, ayollarning o'zlari kam haq to'lanadigan ishlarni tanlaganliklari uchun kamroq maosh oladilar, ikkinchidan, ayollar tajribasi va malakasi yo'qligi sababli ish beruvchi tomonidan u qadar qadrlanmaydi.

Har qanday mamlakatning mehnat bozori ma'lum darajada erkaklar va ayollarning faoliyat sohalari o'rtasida notekis taqsimlanishi, ya'ni mehnat bozorida gender segregatsiyasi mavjud bo'ladi. Milliy parlamentlarda ayollarning ulushi o'rtacha 25 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 1995-yilda qayd etilgan 11 foizdan ancha ko'tarilgan bo'lsa-da, hanuzgacha yetarli darajada emas [9]. O'zbekistonda xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi 2022-yilda 27 foizga etdi. Ayollarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 25 foiz, siyosiy partiyalarda – 44 foiz, oliy ta'lim tizimida – 46 foizni tashkil etishi qayd etildi [10].

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilning sentabr holatiga doimiy yashovchi aholi soni 36 million 495,3 ming kishini tashkil etadi. Shundan ayollar 18 million 98 ming kishi (49,6%), erkaklar esa 18 million 338,9 ming kishini (50,4%) tashkil etadi. Undan tashqari 20 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan aholining nisbati mamlakatda mehnatga layoqatli aholining ayollar va erkaklar o'rtasida taqsimlanishi deyarli tengdir [11].

Erkaklar va ayollar o'rtasida oliy ta'limda sezilarli farq mavjud. Oliy o'quv yurtlari talabalari umumiy sonining (1 042 100) 47 foizini xotin-qizlar (494 758), 53 foizini erkaklar (547 342) tashkil etadi [12]. Bu hodisani qizlarning o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumot olgandan so'ng oila qurishi, farzandli bolishi bilan izohlash mumkin. Chunki ko'pchilikning ongida ayolning asosan uy bekasi degan g'oya ildiz otgan. Ushbu tendentsiyaning oqibati mamlakat mehnat bozorida vertikal segregatsiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'pgina rahbarlik lavozimlarini asosan erkaklar egallaydi va shunga mos ravishda o'z ishi uchun yuqori maosh oladi. O'zbekistonda keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalarida sirtqi va kechki shaklda ta'lim olishning tobora kengayib borayotgani, ta'lim kreditlarining berilishi va xotin-qizlar uchun imtiyozlarning berilishi turmushga chiqqan, ishlaydigan, kam ta'minlangan ayollarga o'qishni davom ettirish imkonini berayotganini ijobiy o'zgarishlar sifatida keltirish mumkin.

Avval aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda qonunchilik darajasida ayollarning mehnat huquqlari, ayniqsa, ish haqi masalalarida buzilishiga oid normalar mavjud emas. Biroq rasmiy statistik ma'lumotlarga asosanib, ayollarning aksariyati iqtisodiyotning kam haq to'lanadigan tarmoqlarida, erkaklar mehnati

esa yuqori haq to'lanadigan tarmoqlarda ustunlik qilishini ko'rish mumkin. Gender tengligiga erishish yo'lida asosiy to'siq xotin-qizlarning jamiyatdagi an'anaviy rollari haqidagi stereotiplar va qarashlarning saqlanib qolayotganidir. Bunday an'anaviy dunyoqarash ustunlik qilgan jamiyatlarda zamonaviy dunyoda ro'y berayotgan transformatsiyalarni hamda o'zgarishlarning ahamiyatini hisobga olmaydilar. Mamlakatimizdagi ijobiy o'zgarishlar sifatida so'nggi paytlarda xotin-qizlarning jamiyatimizdagi mavqeini yuksaltirish, huquqlarini himoya qilish, tibbiyot xodimlari va o'qituvchilarning ish haqini oshirish, xotin-qizlarga ta'lim imtiyozlari berish yo'nalishida olib borilayotgan siyosatni keltirish mumkin.

Istiqbolda jamiyatimizda gender tenglik va xotin-qizlarning himoyalanganlik darajasini yanada oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish va davom ettirish maqsadga muvofiq:

- siyosiy vakillik, ya'ni xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda va barcha darajadagi qarorlar qabul qilishda ishtirokini oshirish, jumladan, saylovlar, siyosiy partiyalar faoliyati hamda davlat boshqaruvidagi ishtirokini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash;

- zo'ravonlik va uydagi zo'ravonlikning oldini olish maqsadida ayollarning ijtimoiy xavfsizligi va himoyasini ta'minlash, gender va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashish; Jumladan, ishdan kech qaytuvchi ayollar uchun mahsus taksilar (haydovchisi ayol bo'lgan) tashkil etish, metrolarda ayollar uchun mahsus vagon joriy qilish, OAV va ijtimoiy arqmoqlarda zo'ravonlikning oqibatlari va qonuniy jazolanishi borasida ma'lumot berib borish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan xotin-qizlar qatlamiga moddiy, huquqiy va kasb egallash, ta'lim olish sohalarida nuqtali yordam berish; jumladan, ta'lim grantlari e'lon qilish, ayollar kam bo'lgan sohalarga xotin-qizlarni jalb qilish, iqtidorli qizlarni o'qishini davom ettirishi uchun imtiyozlar yaratish;

- stereotiplarni o'zgartirish maqsadida o'qimishli, ishbilarmon va oilaparvar ayol qiyofasini, uni qo'llab-quvvatlovchi ota, er, oila, farzandlar qiyofasini ijtimoiy roliklar, filmlar orqali targ'ib qilish.

Shuni ta'kidlash kerakki, gender tengligini ta'minlash hukumat, jamoat tashkilotlari, tadbirkorlar va har bir shaxsning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Gender tengligini amalga oshirish barqaror va teng huquqli jamiyatni rivojlantirishga, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali butun jamiyat farovonligi va manfaatlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Как меняется соотношение численности мужчин и женщин в мире? <https://ranking.kz/digest/world-digest/kak-menyaetsya-sootnoshenie-chislennosti-muzhchin-i-zhenschin-v-mire.html>
2. Глобальные вопросы повестки дня: гендерное равенство <https://www.un.org/ru/global-issues/gender-equality>
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-561-son <https://lex.uz/docs/44947098>
4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son <https://lex.uz/docs/-4494849>
5. Мемешева Л.А. Гендерное равенство как один из факторов социально-экономического развития Узбекистана <https://cyberleninka.ru/article/n/gendernoe-ravenstvo-kak-odin-iz-faktorov-sotsialno-ekonomicheskogo-razvitiya-uzbekistana>
6. Женщины, бизнес и закон 2019 <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/b8016a8f-56fb-525f-ad86-9a8538544a90/content>
7. Всемирный банк определил уровень гендерного равенства в России <https://www.rbc.ru/society/28/02/2019/5c77a4ea9a7947a0095b3dc5>
8. Предубеждения снижают зарплаты женщин <https://www.kommersant.ru/doc/6185708>
9. Глобальные вопросы повестки дня: гендерное равенство <https://www.un.org/ru/global-issues/gender-equality>
10. O'zbekistonda ayollar 27% rahbarlik lavozimlarini egallamoqda — parlamentariy <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/14/womens/>
11. Respublika demografik ko'rsatkichlari raqamlarda https://t.me/statistika_rasmiy/2498
12. Gender ko'rsatkichlari raqamlarda <https://gender.stat.uz/uz/>
13. Saydivaliyeva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
14. Saydivaliyeva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 2 (7), 2023. – B. 30.
15. Saydivaliyeva Kh.Kh. (2023) Development of Gender Statistics in Uzbekistan and its Importance // International Scientific Conference on "New Scientific Trends and Challenges" 20th February, Rome, Italy. <https://openconference.us/index.php/trends/article/view/541/493>



Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li,

*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti,
"Oila huquqi va gender tengligi" bo'limi kichik ilmiy xodimi*

YOSHLARDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA GENDER TAFOVUTLARINING O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlarda kreativlik xususiyatining vujudga kelishi va rivojlanishida gender jihatlarining ta'siri tahlil qilingan hamda ushbu jihatlar mazkur sohada faoliyat yuritayotgan olimlar tadqiqotlarining natijalari asosida yoritilgan.*

Tayanch so'zlar: *kreativlik, kreativ fikrlash, gender tengligi, oila, ta'lim, jamiyat, stereotiplar, divergent fikrlash.*

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние гендерных аспектов на возникновение и развитие креативное способностей у молодежи, и эти аспекты выделены на основе результатов исследований ученых, работающих в этой области.*

Ключевые слова: *креативность, креативное мышление, гендерное равенство, семья, образование, общество, стереотипы, дивергентное мышление*

Annotation. *This article analyzes the influence of gender aspects on the yemergence and development of creative abilities in young people, and these aspects are highlighted based on the results of research by scientists working in this field.*

Keywords: *creativity, creative thinking, gender yequality, family, yeducation, society, stereotypes, divergent thinking.*

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarda gender tengligiga erishish hamda uni jamiyatda ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada mamalaktimizda ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri – 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasidir.

Mazkur Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi¹⁹.

Har bir insonning kreativlik potensialini oshirishda gender omili muhim rol o'ynaydi. Yoshlarda gender tengligi, kreativlikni rivojlantirishda ijobiy va salbiy jihatlarini ta'sir etishi mumkin. Buning uchun, boshqaruv usullari va ta'lim tizimida gender omilining qanday o'rin o'zlashtirishiga e'tibor berish lozim.

Ta'lim, xususan maktab ta'limi va uning o'quv adabiyotlari faqatgina bilim bermaydi, shu bilan bir qatorda jamiyatdagi turli stereotiplarning shakllanishi, bolalar ongida jamiyatning tuzilish haqidagi qarashlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ta'limdagi o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallari va boshqalar o'quv adabiyotlar bolalar dunyoqarashiga katta ta'sir etadi. Ularda gender tengligi tamoyillarining aks etishini tahlil qilish, ta'limda gender ekspertizani amalga oshirish jamiyatga gender tengligini ta'minlanishiga olib keladi. O'zbekistonda maktab, professional va oliy ta'lim tizimida foydalaniladigan o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv adabiyotlari to'liq gender ekspertizadan o'tkazilmagan. Qolaversa, ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim bosqichidagi bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchi va xodimlarining aksariyatini ayollar tashkil etadi²⁰.

Ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish uchun maxsus usullarni o'rganish va ularni amaliyotga tadbiq qilish kerak. Qizlarga va o'g'il bola yoshlarga maxsus kreativlik darslari, loyihalar va g'alaba qozonish vositalari taqdim etish, ularni yangi yaratgan fikrlar bilan tanishtirish va ularga yaxshi kreativlik muhitini yaratish bu jarayonni yanada kuchaytirishi mumkin.

Madaniy qadriyatlari yoki kelib chiqishidan qat'i nazar, ko'pgina tadqiqotlarda kreativlikda gender farqlarini aniqlanmagan. Lubartning fikricha

¹⁹ <https://lex.uz/docs/-5466673#-5467730>

²⁰ Saydivaliyeva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.

ayrim gender farqlarini aniqlagan bir nechta tadqiqotlar ko'pincha sifatsiz o'tkazilgan va nomuvofiq bo'lgan. Darhaqiqat, gender va kreativlik bo'yicha 1980-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ularning yarmi hech qanday farq topmagan, yarmi esa aniqlagan va ushbu farqlar ikkiga bo'lingan: uchdan ikki qismi ayollar ko'proq kreativ, uchdan bir qismi esa erkaklar ko'proq kreativ ekanligini aniqladi²¹.

Divergent fikrlash ko'rsatkichlari bo'yicha ayollarning juda oz ustunligi haqida ba'zi dalillar mavjud. Masalan, Reiskind, Rapagna va Gold boshlang'ich maktab o'quvchilarining qirq bitta tadqiqotni tahlil qildilar va ko'pchilik tadqiqotlar hech qanday farq topmasa ham, ularning beshtasida farq mavjudligini aniqladilar. O'z navbatida, ushbu tadqiqotlar bevosita ayollar haqida ekanligi ahamiyatlidir.

Ba'zi tadqiqotlarda gender farqlari masalasi batafsilroq ko'rib chiqilgan bo'lib, ushbu izlanishlardagi takrorlanishlar shundan iboratki, ayollar og'zaki sohada kreativlik bo'yicha erkaklardan ustun turadi, odatda bu divergent fikrlash o'lchovlari yordamida o'lchanadi. Bunday xulosaga Monrealdagi 1445 nafar ingliz tilida so'zlashuvchi beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari, to'qqiz yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan 160 nafar hindistonlik bolalar 128 nafar yuqori natijalarga erishgan 8- va 9-sinf o'quvchilari va 320 nafar o'n olti yoshli yamaykalik talabalar orasida o'tkazilgan tadqiqot natijasida erishilgan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, boshqa ko'plab tadqiqotlar, ayniqsa konsensus baholash usulidan foydalangan tadqiqotchilar Amabile, Baer, Kaufman va Gentile bunday natijalarni aniqlay olmadi²².

Shuni ham yodda tutish kerakki, statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni topa olmagan tadqiqotlar unchalik qiziq emas va shuning uchun nashr etilishi ehtimoli kamroq, shuning uchun har qanday turdagi gender farqlarini ko'rsatadigan nashr etilgan tadqiqotlar ulushi biroz sun'iy ravishda yuqori bo'lishi mumkin.

Qizlar va o'g'il bola yoshlar o'rtasidagi o'zlarining kreativliklarini ifodalash shakllari farq qiladi. Maqbul g'oyalar va loyihalar ularning o'zlarini ifodalash usullarini oshirish va yangiliklar qo'shish orqali kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda muhim jihatlari hisoblanadi.

²¹ John Baer and James C. Kaufman The International Handbook of Creativity Cambridge University Press 2006. p.22.

²² John Baer and James C. Kaufman The International Handbook of Creativity Cambridge University Press 2006. p.22

Hargreaves respondentlarning rasm chizish topshirig'iga javoblarni o'rganib chiqib, o'rta maktab yoshidagi o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida ijodkorlikda hech qanday farq topmagan. Biroq u qizlarning "uy xo'jaligi" va "hayot" toifalarida, o'g'il bolalar esa "mexanika fanlari" va "sport o'yinlari" toifalarida javob ko'proq berishganini aniqladi. O'sha o'quvchilardan qarama-qarshi jins vakillari bo'lib (o'g'il bolalar qiz sifatida, qizlar o'g'il bolalar kabi) javob berishlari so'ralganda, natijalar teskari chiqdi. Bir necha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "tajovuzkor g'oyalar"ning ayollarga qaraganda erkaklar ijodidada ko'proq uchraydi. Maktab yoshidagi bolalarning Torrensning kreativ fikrlashni aniqlashga qaratilgan testiga munosabatini Dudek va Verreault kontent tahlilini o'tkazdilar va ular qizlarda ko'proq libidinal jarayonlarga moyilligini, o'g'il bolalarda esa ko'proq agressiv g'oyalarga moyilligini aniqladilar.

Stroug va Deari Vachter o'rta maktabda o'g'il va qizlarning ijodiy hikoya yozishni o'rganishdi. Ishtirokchilar ichidan faqat o'g'il bolalardan iborat juftliklar aralash jinsli juftliklar va butun qizlar juftliklariga qaraganda past darajadagi ijtimoiy g'oyalarni ko'rsatdilar. Faqat o'g'il bolalardan tashkil topgan juftliklarda, qizlar juftliklariga qaraganda ochiq-oydin tajovuzkor g'oyalarning yuqori darajasi mavudligini ko'rsatdi.

Oila va jamiyat kreativlik rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. Zero, har bir shaxs oilada tarbiya topadi va jamiyatlardagi ma'lum mezonlar uning shaxs sifatida shakllanishida bevosita ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Oilada va jamiyatda qanday qilib kreativlikni qo'llab-quvvatlash mumkinligini o'rganish, yoshlarni o'z fikrlarini ifodalashga, ularga qo'shimcha resurslar taqdim qilishga va ularga qiziqarli muhit yaratishga yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ayollarda tashqi motivatsiya ularning kreativligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatlarga ko'proq moyilligi ma'lum bo'ldi. Baer sakkizinchi sinf o'quvchilaridan (oltmish olti qiz, oltmish ikki o'g'il) ichki va tashqi motivatsiyani targ'ib qiluvchi sharoitlarda original she'rlar va hikoyalar yozishni so'radi. Ichki motivatsiya sharoitida subektlarga ularning she'rlari va hikoyalari baholanmasligi aytiladi; tashqilarda esa subektlar baholashni kutishga majbur qilindi va baholashning ahamiyati ta'kidlandi. Shundan so'ng ekspertlar she'r va hikoyalarning kreativlik darajasini baholadilar. Albatta, ushbu tadqiqotda jins va motivatsion holatning sezilarli ta'siri bor edi. O'g'il bolalar uchun ichki va tashqi motivatsiyalar o'rtasida kreativlik ko'rsatkichlarida deyarli farq yo'q edi, lekin qizlar uchun bu farqlar

juda muhim edi. Xuddi shu yoshdagi o'quvchilar bilan o'tkazilgan keyingi tadqiqotda tasdiqlandiki, rag'batlantirishlar va kutilayotgan baholarning salbiy ta'siri ayollarda cheklangan. Buning sabablaridan biri o'g'il bolalar qizlarga qaraganda shaxslararo muloqotga tasirchanligi ancha kamligidadir. Bu ularning ichki va tashqi motivatsiya darajasini, qizlarning motivatsiya darajasiga ta'sir qiladigan xabarlarga nisbatan ta'sirchanligining kamligidadir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda, ta'lim olishda, ishlash jarayonida o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishlarida barcha yoshlarga teng huquq va imkoniyatlar yaratib berish orqali ularda kreativlik xususiyatlarini yanada rivojlantirishda gender tengligi tamoyillariga rioya qilgan holda erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **John Baer and James C. Kaufman** The International Handbook of Creativity Cambridge University Press 2006. p. 22.
2. Saydivaliyeva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
3. Ismailova Z., Ismaylova R., Saydivaliyeva K., Tuychieva G. () Development of gender Entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and Environmental Engineering, Volume 284, 2021. // <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
4. Saydivaliyeva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 2 (7), 2023. – B. 30.
5. Saydivaliyeva X. Genderga oid audit tushunchasi va huquqiy asoslar // Huquq va burch. – № 7, 2023. – B. 18.
6. Saydivaliyeva Kh.Kh. (2023) Development of Gender Statistics in Uzbekistan and its Importance // International Scientific Conference on "New Scientific Trends and Challenges" 20th February, Rome, Italy. <https://openconference.us/index.php/trends/article/view/541/493>
7. Hojiyev R.B. Shaxsda kreativlik xususiyatlarini yuzaga keltiruvchi va to'liqlilik qiluvchi ijtimoiy omillar // "Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot" elektron ilmiy jurnal. – № 1, 2023. – B.40.
8. Hojiev R. Kreativ fikrlash – jamiyat taraqqiyotining muhim omili. FarDU Ilmiy xabarlar. – № 6, 2022. – B. 74-76
9. Икрамов Р.А., Хожиев Р.Б. Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики. Вестник науки и образования. – № 14 (92), 2020. Часть 3. – С. 88-90.

10. Ходжиев Р.Б., Норбоева Д.О. Креативное мышление – важный фактор социального развития. Вестник науки и образования. – № 10 (113), 2021. Часть 3. – С. 76-79.
11. Hojiev R.B., Norboeva D.O. Yoshlar ijtimoiy hayotning kognitiv asoslari. "Academic Research in Educational Sciences". – № 2 (2), 2021. – B. 544-555.
12. Hojiev R.B., Holmominov G.B., Sharipov M.L. Raising a harmoniously developed generation is a priority of democratic reforms in Uzbekistan. Yeuropcan Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8. Number 5. 2020. pp. 1-3.
13. Хожиев Р.Б., Музаффаров У.И. Приоритеты развития лидерских качеств у молодежи // Вестник науки и образования. – № 5-2 (125), 2022. – С. 33-36.
14. Hadjiev R., Abdalov U. (2015) The Role of Community in the Development of Society of Citizenship // Young Scientist № 2. pp. 107-109.
15. Hojiev R.B., Muzaffarov U.I. Huquqiy madaniyat tushunchasini vujudga kelishishi va rivojlantirishning asosiy vositalari // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. № 2 (7), 2022. – B. 195-202.
16. Hojiev R.B., Muzaffarov U.I. O'zbekistonda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ta'lim tizimining o'rni // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. № 2 (7), 2022. – B. 203-209.
17. Yusubova M., Hojiev R. () Mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha milliy monitoring tizimi // Central Asian Academic Journal of Scientific Research № 2 (7), 2022. – B. 191-194.
18. Ikramov R.A., Hojiev R.B. Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Academic research in yeducational sciences CSPI conference 1 (2021). – B. 576-579.
19. Adilov Z.Yu., Hojiev R. B. The source of developing intellectual ability // Молодой ученый. – № 4 (22), 2017. – С. 389-393.



Махмудова Малика Анваровна,
докторант Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан
e-mail: malika.mahmudova.2023@mail.ru

ДУЛУТСКАЯ МОДЕЛЬ РАБОТЫ С СЕМЕЙНЫМИ НАСИЛЬНИКАМИ: ПРИНЦИПЫ, ЭТАПЫ И ЦЕЛИ В КОНТЕКСТЕ БОРЬБЫ С НАСИЛИЕМ В СЕМЬЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается Дулутская модель работы с семейными насильниками, которая является одной из самых эффективных и распространенных в мире. Статья охватывает основные принципы модели, ее этапы и цели. Также в статье подчеркивается важность борьбы с насилием в семье и необходимость признания этой проблемы не только конкретной семьи, но и всего общества. Дулутская модель может быть использована в Узбекистане для борьбы с проблемой насилия в семье и защиты прав жертв насилия.

Ключевые слова: Дулутская модель, семейное насилие, коррекционные программы, агрессия, насильник, индивидуальный подход.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha Dulut tuzatish dasturi modeli ko'rib chiqilgan hamda uning asosiy tamoyillari, uning bosqichlari va maqsadlari yoritilgan. Maqolada muallif, shuningdek, oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashning ahamiyati va bu muammoni nafaqat ma'lum bir oila, balki butun jamiyat

uchun tan olish zarurligi ta'kidlangan. Dulut modelidan O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlik muammosiga qarshi kurashish va zo'ravonlik qurbonlari huquqlarini himoya qilishda samarali foydalanish mumkin

Tayanch so'zlar: *Dulut modeli, oilaviy zo'ravonlik, tuzatish dasturlari, tajovuz, zo'ravon, individual yondashuv.*

Annotation. *This article discusses the Duluth model of working with family perpetrators of domestic violence, which is one of the most effective and widespread models in the world. The article covers the basic principles of the model, its stages and goals. Also, the article emphasizes the importance of dealing with domestic violence and the need to recognize this problem not only for a particular family, but for the entire society. The Duluth model can be used in Uzbekistan to combat the problem of domestic violence and protect the rights of victims of violence.*

Keywords: *Duluth model, family violence, correctional programs, aggression, abuser, individual approach.*

Одним из важных научных направлений, изучающих проблему насилия, является семейное насилие. Несмотря на то, что тема семейного насилия широко изучается, в социологии пока не существует единой теоретической концепции, описывающей акторов насилия. Кроме того, самой распространенной формой насилия в отношении женщин во всем мире является жестокое обращение со стороны интимного партнера (затрагивающее примерно 641 миллион женщин) [1]. Актуальность проблемы домашнего насилия в Узбекистане подтверждает статистика, за семь месяцев 2023 года в Узбекистане выдали 21 871 охранный ордер женщинам, пострадавшим от давления и насилия. Из зарегистрированных случаев давления и насилия в отношении женщин 18 526 (84,7%) произошли в семьях [2]. Поэтому авторы считают необходимым обосновать в данной статье необходимость работы с нетипичной социальной группой – мужчинами.

В США мужчинам, осужденным за домашнее насилие, суд поручает пройти программу вмешательства в отношении насильников (BIPP) [3] в рамках вынесения приговора. Наиболее часто используемый BIPP основан на модели Дулута (Duluth Model) [4]. Дулутская модель работы с семейными насильниками была разработана в 1981 году группой американских специалистов по проблемам насилия в семье. Она основывается на том, что насилие в семье является проблемой не только конкретной семьи, но и всего общества. Согласно этой модели, насилие

в семье возникает из-за неравенства в отношениях между мужчинами и женщинами, которое проявляется в форме доминирования мужчины над женщиной. Ее взяли за основу при создании национальных моделей в ряде стран Южной Америки, в Великобритании, Швеции, Белоруссии и во многих других странах мира.

При этой модели агрессор направляется в группу, где с ним проводится коррекционная работа: под страхом сначала административного, а затем уголовного преследования в случае несогласия. В США предписание о прохождении программы реабилитации выносит судья. Поэтому американец не может безнаказанно отказаться от реабилитации, бросить программу до ее окончания.

Модель Дулут основана на колесе власти и контроля (см. Рисунок 1), которое представляет собой инструмент для анализа динамики насилия в отношениях [5].




Рис.1. Колесо власти и контроля

Дулутская модель определяет 8 типов поведения насильника: угрозы, эмоциональное насилие, экономическое насилие, физическое насилие, сексуальное насилие, использование детей, изоляция и психический террор. Каждый тип поведения имеет свои характеристики и последствия для жертвы.

Согласно Дулутской модели, работа с семейными насильниками должна осуществляться в рамках трех этапов: оценка опасности,

разработка индивидуального плана работы и наблюдение за выполнением плана. На первом этапе проводится оценка опасности для жертвы и ее детей. На втором этапе разрабатывается индивидуальный план работы с насильником, который включает в себя конкретные шаги по изменению его поведения. На третьем этапе проводится наблюдение за выполнением плана и корректировка его в случае необходимости.

Одной из ключевых идей Дулутской модели является понятие «круга насилия». Этот круг включает в себя различные формы насилия, такие как физическое, эмоциональное, экономическое и сексуальное насилие. Каждая форма насилия может быть связана с другими формами, что создает замкнутый круг насилия. Целью работы с насильником является прерывание этого круга.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ:

Проблема семейного насилия является актуальной и в Узбекистане. Большинство случаев насилия происходят в семьях, поэтому необходимо обратить внимание на работу с мужчинами, которые являются насильниками.

Дулутская модель является основой для многих программ по работе с семейными насильниками в разных странах мира. Она получила признание как эффективный подход к предотвращению и устранению семейного насилия.

Исходя из вышеизложенного автор рекомендует следующие предложение:

1. Разработать и внедрить систему мониторинга случаев семейного насилия, которая позволит оперативно реагировать на нарушения и предупреждать повторные случаи.

2. Создать базу данных насильников, которая будет использоваться при расследовании преступлений и планировании профилактических мероприятий.


3. Разработать программы вмешательства в отношении насильников на основе Дулутской модели, которые являются насильниками, включающую в себя групповые и индивидуальные консультации, тренинги по управлению эмоциями и агрессией.

4. Обучение правоохранительных органов и социальных работников методам работы с жертвами семейного насилия и насильниками, в том числе использованию Дулутской модели.

6. Организация и проведение круглых столов, акций и иных мероприятий с представителями местной власти, средствами массовой информации и иными заинтересованными структурами для актуализации проблемы, привлечения клиентов в программу;
7. Разработка и распространение методологической литературы, пособий, брошюр по работе с актoрами насилия
8. Организовать эффективную работу по межведомственному сотрудничеству, обмену информацией между структурами, социальное сопровождение и патронат семей, с членами которых проводилась коррекционная работа.

Список литературы:

1. <https://www.who.int/ru/news/item/09-03-2021-devastatingly-pervasive-1-in-3-women-globally-experience-violence>
2. <https://telegra.ph/%D0%8Etgan-7-ojda-%D2%9Barijb-22-ming-nafar-tazji%D2%9B-va-z%D1%9Eravonlikdan-zhabrlangan-hotin-%D2%9Bizlarga-%D2%B3imoya-orderi-berildi-09-04>
3. https://www.tdcj.texas.gov/faq/cjad_bipp.html
4. <https://www.theduluthmodel.org/what-is-the-duluth-model/>
5. <https://www.theduluthmodel.org/wheels/understanding-power-control-wheel/>



Jumaniyazova Moxira Shuxrat qizi,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar"
kafedrasi o'qituvchisi

ISLOMDA GENDER TENGLIGI MASALASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblangan gender tengligi to'g'risida ma'lumot berilgan va tahlil etilgan. Xususan, islom dini va unda gender tengligining roli haqida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Islomda tenglik masalasi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi hamda bu boradagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Buni tushuntirish va tahlil etish orqali ijtimoiy hayotimizdagi ko'plab savollarga javob topamiz.

Tayanch so'zlar: gender tenglik, jamiyat, davlat, islom dini, islom huquqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlar;

Аннотация. В данной научно-исследовательской работе приводятся и анализируются сведения о гендерном равенстве, которое считается одним из актуальных вопросов. В частности, дана аналитическая информация о религии Ислам и роли гендерного равенства в ней. Вопрос равенства в исламе представлен уникальным образом, как и мнения по этому вопросу. Объясняя и анализируя это, мы можем найти ответы на многие вопросы нашей социальной жизни.

Ключевые слова: *гендерное равенство, общество, государство, исламская религия, исламское право, общественно-политические взгляды,*

Annotation. *This research work provides and analyzes information about gender equality, which is considered one of the topical issues. In particular, analytical information about the religion of Islam and the role of gender equality in it is given. The issue of equality in Islam is presented in a unique way, as are opinions on this issue. By explaining and analyzing it, we can find answers to many questions of our social life.*

Keywords: *gender equality, society, state, Islamic religion, Islamic law, socio-political views;*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ijtimoiy hayotimizni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, siyosiy, ijtimoiy jabhalarda erkaklar va ayollarning rolini izchillashtirish masalasi ham shular jumlasidandir. Ayniqsa, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan targ'ibot va tashviqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu masalada jamiyatning quyi qismida ko'plab tushunmovchilik va chalkashliklar mavjudligi uni yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bilan O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim darajasi va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish bo'yicha davlat siyosati yanada takomillashtirilmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 dan ortiq farmoni, qarori, hukumat qarorlari, vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda olib boriladigan 20 dan ortiq tadbirlar rejasida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash sohasini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. 2022-yilning yanvar oyida Prezidentning "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu kabi islohotlar zamirida ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, ularga har tomonlama imkoniyatlar yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda din sohasidagi mavjud islohotlar va ularning jamiyatdagi muhim masalalariga bo'layotgan munosabatini ham e'tiborga olish lozim. Mamlakatimiz aholisining 90 foizdan ortig'i islom diniga e'tiqod qilishini inobatga olgan holda, islomda gender tenglik masalasi qanday tahlil etilishi ham ahamiyatga egadir [2].

Bilamizki, ijtimoiy masalalar nafaqat huquqiy jihatdan, balki jamiyatning bir qismi hisoblangan diniy-milliy qadriyatlar asosida ham tartibga solinadi. Mazkur

ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi ham diniy-milliy qadriyatlarimizda gender tengligi masalasi qanday tahlil etilishi va uning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat ekanligini o'rganish va tahlil etishdan iborat. Mavzuni tahlil etishda tarixiylik va analiz-sintez metodlaridan foydalanamiz. Negaki mazkur metodlar bevosita tadqiqot mavzusini aniq tahlil etishga yaqindan yordam beradi. Gender tengligini islomdagi o'ziga xosligini aniqlashdan oldin, islom dinnining mazmun-mohiyatini aniqlashtirishimiz kerak.

Islom dini jahon dinlaridan biri bo'libgina qolmay, u yuksak taraqqiy etgan huquqiy oila va o'ziga xos huquqiy madaniyat maktabidir. Islom dini Allohga ibodat qilish masalalarini bayon qilish bilan birga musulmonlarning kundalik hatti-harakatini tartibga solishga, ularning turmush tarzini shakllantirishga yo'naltirilgandir [3].

Bugungi kundagi huquqiy tizimlar ijtimoiy munosabatlarning eng muhim masalalarini tartibga solsa, islom huquqi ham hayotning ulkan masalalaridan tortib, oddiy iker-chikirlargacha kirib borib, ular o'rtasida o'ziga xos qoidalar va nizolarni belgilab beradi. Mashhur islomshunos, fahiq Abdul Homid G'azzoliyning fikricha, islom huquqi insonning quyidagi huquqlarini himoya qiladi:

- hayotini;
- aqlini;
- dinini;
- naslini;
- molini.

Bu o'rinda G'azzoliy inson huquqlarini umumlashtirgan holda bayon etgan bo'lsa-da, bir tafakkur qilib ko'rsak mazkur huquqlari himoya qilingan insonda huquq borasida hech qanday kamchilik bo'lmasligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin [4]. Inson huquqlari tizimida teng huquqlilik, ayniqsa gender tenglik bilan bog'liq masalalarni tahlil etishning ahamiyati har bir davrda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Islom dinida tenglik masalasi, ayol huquqlariga qanday ahamiyat qaratilgani to'g'risida ko'pgina olim fiqh ilmi ulamolari turli fikr-mulohazalrni bildirib o'tishgan.

Islomda inson huquqlari, jumladan tenghuquqlilik masalasi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tenghuquqlilik millatlar o'rtasida, yosh, fuqarolik, irq, ijtimoiy kelib chiqish, jins va shu kabilar o'rtasida bo'lishi mumkin. Tenghuquqlilik prinsipi bu barcha davlar organlari, jamoat tashkilotlari,

fuqarolar va mansabdor shaxslarning kimligidan qat'iy nazar qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi va ularning qonun oldida barobar bo'lishidir. Adolat ramzi bo'lgan bu prinsip huquqiy tarbiya natijasida kamolga yetadi [4].

Tahlil etilishi belgilangan masala obekti bo'lgan tenglik, tenghuquqlilik, aynan erkak va ayol o'rtasidagi tenglik, tenghuquqlilik masalasidir. Yuqorida keltirilgan manbada yana quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin: "Tadqiqotlardan anglashiladiki, aynan islom dini doirasida gender rollari mutanosibli eng uyg'un tarzda kuzatilmoqda, islom diniga ko'ra, musulmon ayol jinsiy ekspluatatsiya obyekti bo'lishi mumkin emas, u hurmat va ehtiromga ega. Mafkuraviy munozaralarning eng yuzaki tahlili ham musulmonlar o'rtasida yuqori darajadagi birdamlik mavjud bo'lganda, ularni ayollarning jamiyatdagi, oiladagi, diniy tashkilotlardagi o'rni va roli haqidagi g'oyalarni tushunishga imkon beradi. Ma'lumki, musulmon ayollarning huquqlarini faqat oila ichkarisida deb hisoblaydigan o'ta konservativ talqinlar ham yoki aksincha, islom ayollarga o'zini nomoyon qilish uchun keng imkoniyatlar beradi va hech bo'lmaganda potensial ravishda gender tengligi uchun huquqiy va madaniy asoslar beradi tarzidagi xulosalar ham mavjud. Ikkinchi qarash doirasida xulosalarga ega bo'lgan mutaxassislarning eng yorqin va taniqli mualliflaridan biri, marokashlik sotsiolog Fotima Mernissi[5] ning ta'kidlashicha, islom dini ilk davrlardan arab dunyosida axloq normalarining yumshatilishiga xususan, ayollar huquqlari masalasida keng islohotlarni ilgari surgan. Misol uchun, islomda dindoshlar o'rtasidagi tenglik va birdamlik g'oyalari juda katta mazmunga ega. Ammo, keyinchalik siyosiy elita ushbu asl, demokratik islom tamoyillarini o'zlarining foydasiga qayta izohlashga intilishdi. Islomga yot bo'lgan "Ayollarni yoqlamaslik an'analari" shu tariqa asta sekin rivojlanib bordi" [4]. Islom ta'limotida erkaklar va ayollarning tengligi masalasi o'ziga xos tarzda belgilanganligi, erkaklar va ayollar o'zlariga berilgan huquq va majburiyatlariga ko'ra tengdirlar. Bu tenglik ularning ijtimoiy-bilogik tuzilishlaridan kelib chiqib, oilada va jamiyatdagi mavqeilaridan kelib chiqqan holda e'tirof etiladi. Masalan, Oilaviy munosabatlarda, oilaning taraqqiy topishi asosan ayollarning xizmatlari evaziga rivoj topsa, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda erkaklarning vazifasi muhim hisoblanadi. Islom ana shu mo'tadillikni va o'ziga xos tenglikni o'rnatgan din hisoblanadi.

Fikrimizning nechog'lik to'g'ri ekanligini, shu mavzudagi yana bir fikr bilan mustahkamlaymiz: "Agar biz bevosita hayotni yaratish borasida kishilarning

funksiyalari va rollariga qaraydigan bo'lsak, biofiziologik xususiyatiga ko'ra mehnatni tashkil etish va tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish erkak jinsiga, oila taraqqiyoti esa ayol jinsiga aloqador ekanligini ko'ramiz. Shu aloqadorlik erkak va ayol jinsining hayotdagi funksiyalari va rollari erkak va ayol orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi jihatlardir. Demak, erkak va ayol jamiyat hayotida o'ziga xos o'rin va o'ziga xos mavqega ega. Hech qachon erkak ayolning vazifasini ayoldek, ayol esa erkakning vazifasini erkakdek bajara olmaydi. Bunga bir qancha sabablar bor. eng avvalo, erkak va ayol o'zining biologik va psixologik jihatlari bilan bir-biridan ancha farq qiladi, Albatta, erkakda bo'lgan jismoniy salohiyat ayolda yoki ayoldagi mehr, yumshoq tabiatlilik, nozik did erkaklarda yo'q bo'lishi mumkin. Islom ta'limotiga ko'ra, har ikki jinsga uning xususiyati, biologik va psixologik tuzilishiga qarab huquq va majburiyatlar belgilab berildi" [4].


Umuman olganda, gender tenglikni ta'minlash, jinsiy zo'ravonlikni oldini olish, jamiyatda ayollar va erkaklarning ijtimoiy-siyosiy rolini oshirish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilishi, din sohasi vakillarining ham bu boradagi islohotlari muhimdir. Ayniqsa bugun insonlarga ularga yaqin va ochiq yo'nalishda asosli ma'lumotlarni taqdim etish, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mazkur mavzu bugun o'rganilishi va tadqiq etilishi muhim bo'lgan sohalar sirasiga kiradi. Bu o'rinda islom huquqi manbalari hisoblangan juda ko'plab nodir asarlarni tarjima qilish va amaliyotga tadbqiq etish lozim. Negaki, bugun biz globallashib borayotgan, axborot xurujlari davrida yashayapmiz, har bir masala o'zining isboti va yakdil xulosasi bilan umumlashtirilsa jamiyatdagi ko'plab so'roq ostidagi savollarga javob topgan bo'lamiz. Shuningdek, islom manbalarining amaliyotga tadbqiq etishda zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga uzviy bog'langan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
3. Saidov A.H. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari. –Toshkent: Adolat, 2004. – B.309.

4. Yusupova N.J. Islomda ayol huquqlari. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 28.
5. Fatima Mernissi "The Veil and the Male elite. Adisson Wesley publishing house. 1991.
6. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
7. Ismailova Z., Ismaylova R., Saydivalieva K., Tuychieva G. (2021) Development of gender entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and Environmental Engineering, Volume 284. <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
8. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
9. Saydivalieva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 2 (7), 2023. – B. 30.



Nomozova O'g'iloy Akmaljon qizi,

*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti*

e-mail: ogiloy.nomozova@mail.ru

OILADA FARZAND TARBIYASIDAGI GENDER DIFFERENSATSIYA VA ULARNING OQIBATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada farzandlarni voyaga etkazish, tarbiya qilish jarayonida ularga nisbatan munosabatda gender farqlash (gender differensatsiya), gender stereotiplar va ularning salbiy oqibatlari qisqacha tahlilga tortilgan. Jamiyatimizda davlatimiz tomonidan qizlar ta'limiga ustuvorlik berilayotgani, ta'limda qizlarning soni ortib borayotgani holda, oilada ularning ayrim imkoniyatlari cheklanayotgani ushbu mavzuga alohida yondashishni talab qiladi.

Tayanch so'zlar: *gender, gender tenglik, gender differensatsiya, gender tafovut, stereotip, gender stereotip.*

Аннотация. В данной статье кратко анализируется гендерная дискриминация, гендерные стереотипы и их негативные последствия в процессе воспитания и воспитания детей в семье. В нашем обществе тот факт, что государство отдает приоритет образованию девочек, при этом число девочек, получающих образование, увеличивается, некоторые их возможности в семье ограничиваются, требует особого подхода к этой теме.

Ключевые слова: *гендер, гендерное равенство, гендерная дифференциация, гендерное различие, стереотип, гендерный стереотип.*

Annotation. *This article briefly analyzes gender discrimination, gender stereotypes and their negative consequences in the process of raising and raising children in the family. In our society, the fact that the state gives priority to girls' yeducation, while the number of girls in education is increasing, some of their opportunities in the family are limited, requires a special approach to this topic.*

Keywords: *gender, gender yequality, gender differentiation, gender difference, stereotype, gender stereotype.*

Oila jamiyatning eng asosiy, uni yuksaltiruvchi bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi barchamizga ayon. Mazkur bo'g'in qanchalik sifatli va mustahkam bo'lsa, jamiyat shunchalik barqaror bo'ladi. Bu borada eng e'tiborli jihat har bir oilada o'sib-ulg'ayayotgan yosh avlodning tarbiyasidir. Shu jihatdan ushbu maqolada farzand tarbiyasidagi gender differentsatsiya jarayonlari va ularning oqibatlari tahlilga tortiladi.

Mavzuga kirishdan oldin qisqacha gender tushunchasiga va uning o'rganilish tarixiga to'xtalib o'tamiz:

“Gender ijtimoiy jins degan tushunchani beradi va ularning tengligini e'tirof etadi. Gender ayol va erkak munosabatlarining majmuyini tashkil etadi va u rivojlanish jarayonining barcha bosqichlarida: oilada, jamiyatda, ta'limda, siyosatda namoyon bo'ladi. Jins esa ayol va erkakning biologik farqlanishdir”²³.

Umuman olganda, gender masalalari bir qancha jahon olimlari va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, gender stereotiplarining ta'lim va tarbiyaga ta'siri L.N.Nadolinskayaning ishlarida atroflicha tadqiq etilgan²⁴. Shuningdek, o'zbek olimlaridan M. Abdullaneva, M.L. Abdujabborova, Sh.A. Akramova, R.X. Djuraev, O.P. Jamoldinova, Z.K. Ismoilova, N.D. Qosimova, M. Quronov, U.I. Mahkamov, R.M. Medetova, N.Sh. Mullaboyeva, O.M. Musurmonova, E.M. Muxtorov, N. Ortiqov, M.M. Tilavova, N.I. Xalilova, Sh.T. Xalilova, B.X. Xodjayev, X.M. Tojiboyevalarning ilmiy ishlarida oilada gender nazariyasi qoidalari va tamoyillarini joriy etish, o'g'il va qiz bolalar gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari va shaxs umummadaniyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

²³ Султанова М.М. Гендер. Гендер? Гендер! – Хужанд, 2002. – 32 с.

²⁴ Надолинская, Л.И. Гендерные отношения на рынке труда: Современные тенденции Учет гендерных особенностей в образовании Таджикистане [Электронный ресурс] / Л.И. Надолинская.

Hozirgi kunda gender tengligini ta'minlash masalasi har bir sohada asosiy ahamiyat kasb etishi bilan birga, ta'lim va tarbiya jarayonida ham bu masalaga alohida e'tibor beriladigan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida bu masalaga, ya'ni o'g'il va qizlarning ta'limiga nisbatan gender masalalari, gender tenglik masalalariga alohida e'tibor qilinayotgani shubhasiz. Bu borada, ayniqsa, qizlarning ta'limiga juda katta urg'u berib borilmoqda. Zero, jamiyatda ikkala jins vakillarining ham ta'limda gender tenglikka erishishi natijasida ana shu jamiyatda rivojlanish ham barqarorlashib boradi. Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, bu borada ta'lim muassasidan oldin eng avval oilada o'g'il va qiz farzandlarning huquqlari borasida ham gender tenglik masalasiga alohida ahamiyat berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir jins vakilining ma'naviy dunyosi, o'z haq-huquqlarini bilish darajasi, avvalambor, oila muhitida rivojlanib boradi. Biroq, afsuski, haligacha jamiyatimizda aksariyat oilalarda o'g'il farzand qiz farzandga nisbatan bir pog'ona ustun ko'rilishi sir emas. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, bu jarayonda gender differentsatsiya ko'zga tashlanadi. Xo'sh, gender differentsatsiya o'zi nima?

Gender differentsatsiya – bu jinslar orasidagi biologik farqqa ko'ra insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini belgilab berish. U jarayon oqibatida ko'pincha gender tengsizlik yuzaga keladi²⁵. Jamiyatdagi sotsial statusning biologik jinsga qarab belgilanishi yoki ajratilishi jamiyatdagi rivojlanish jarayoniga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'p bora kuzatiladi. To'g'ri, biologik jinsga ko'ra ayrim masalalarda tafovutlar bor, ayrim masalalarda ushbu tafovutlarga amal qilinishi kerak, ammo xoh erkak bo'lsin, xoh ayol bo'lsin, ularning jamiyatdagi mavqeyiga putur etkazmagan, kamsitmagan holda munosabatda bo'lish lozim. Xuddi shuningdek, jamiyatimizda aksariyat oilalarda ham bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni oilalarda haligacha o'g'il farzand hamda qiz farzand tarbiyasi borasida bir qancha gender tafovutlar mavjud. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, oilada farzandlar kelajagini belgilashda, avvalo, ularga tarbiya berishda gender tenglik ta'minlanmas ekan, bu, albatta, o'zining salbiy oqibatlarini namoyon etmasdan qo'ymaydi.

Ayollar va erkaklar odatda turli lavozimlarda faoliyat yuritadilar. Nisbatan kam sonli erkaklar odatda ayollar faoliyati bilan shug'ullanishi va nisbatan kam

²⁵ <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/oi/authority.20110803095846589#:~:text=The%20process%20of%20assigning%20social,with%20regards%20to%20certain%20activities>

sonli ayollar odatda erkaklar faoliyati bilan shug'ullanishi ikkalasi ham gender farqlanishi (gender differentsatsiya)ning asosidir. Demak, kasbiy faoliyatga nisbatan bunday yondashuv ham, aslida, oilada shakllanadi. Ayrim oilalarda qiz bola tanlagan kasb ota-ona tomonidan rad etiladi, o'g'il bolada ham xuddi shunday holatlar kuzatiladi. Bularga sabab qilib "bu kasb qiz/o'g'il bolaga to'g'ri kelmaydi" qabilidagi jumlar keltiriladi. Bu faqatgina ota-ona tomonidan emas, qarindoshlari (bobo, buvi, amma, xola, amaki, tog'a va h.k.) tomonidan ham tanqid qilinadi.

E'tibor berilsa, o'rtacha hisobda oilalarimizda "birinchi farzand, albatta, o'g'il farzand bo'lib tug'ilishi kerak" degan stereotip ham mavjud.

Gender stereotip – bu erkaklar yoki ayollar egalik qilishlari kerak bo'lgan umumlashtirilgan qarash yoki xususiyatlar haqida oldindan tasavvur qilish yoki erkaklar va ayollar tomonidan ko'rsatiladigan rollar. Stereotip ayollar yoki erkaklarning ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishini, professional kareralarini davom ettirishini hamda o'zlarining hayotdagi rejalarini tanlashni cheklasa, u zararli bo'ladi²⁶. Bazida inson tug'ilganidanoq stereotiplar qurshovida qoladi. Demak, agar bu stereotiplar gender jihatdan unga yuqorida qayd etilgani kabi hayotining asosiy masalalarida uni cheklab-chegaralab qo'ysa, gender tengsizlik yuzaga keladi. Kundalik hayotimizda bu kabi to'siqlarga ko'plab duch kelamiz, nafaqat o'z hayotimizda, balki atrofimizda bunday hodisalar odatda bisyor. Masalan, jamiyatimizda ba'zi oilalarda o'g'il farzand tug'ilishi orziqib kutiladi, qiz farzand dunyoga kelishida esa odatda bunday bo'lmaydi. Ko'rinib turganidek, salbiy gender stereotiplar bola dunyoga kelishidan oldinoq uning imkoniyatlarini yo cheklaydi yo kengaytiradi. Bu holat esa keyinchalik umri davomida yana ham avj pallasiga chiqadi. Ayniqsa, qiz farzand va o'g'il farzand voyaga etib, oliy ma'lumotli bo'lishi ham ayrim oilalarda stereotiplar bilan belgilanadi, xususan, bu borada: "Qiz bolaga o'qib nima kerak? Qiz bola o'qib dunyoni olib berarmidi? U birovning xasmi bo'ladi, uni o'qitib nima kerak?" kabi jumlar, afsuski, hozirgi globallashuv jarayonida ham ko'p bora qulog'imizga chalinmoqda. Shunday holatlar guvohi bo'lamizki, hattoki o'g'il farzandga nisbatan ovqatlanish mobaynida ham ustuvorlik beriladi (o'g'il bola katta-katta eyishi kerak, u oila boqadi" kabi jumlar bilan

²⁶ Gender stereotypes and Stereotyping and women's rights. UN Human rights office of the high commissioner. https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Issues/Women/WRGS/OnePagers/Gender_stereotyping.pdf

alohida e'tibor qaratiladi). Bu kabi stereotiplarni ba'zilar qadriyat darajasiga ko'taradi. Ammo bular o'z-o'zidan xotin-qizlarning kamsitilishiga, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi, kelajakka ishonchini so'ndirishiga sabab bo'ladi. Axir yaxshi tarbiya, bilim olish, ziyoli, muayyan kasb egasi bo'lish faqatgina moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun emas, balki ma'naviy jihatdan ikkala jins vakillari ham ma'nan yetuk bo'lishini ham kafolatlaydi.

Yana bir masala: oilada kundalik yumushlarda ham farzandlarning gender differentsiatsiya mavjud. Masalan, er chopish, ekin ekish, umuman, kuchli jismoniy mehnat talab qiladigan yumushlar fiziologik jihatdan ko'proq o'g'il farzandlar zimmasiga yuklatiladi, ammo kir yuvish, ovqat pishirish, kiyim dazmol qilish, chang artish kabi har bir shaxs hayotida o'zi uchun eng kerakli bo'ladigan oddiy yumushlar faqatgina qizlar zimmasiga yuklatiladi. Vaholanki, bu yumushlarni har bir shaxs qila olishi kerak.

Tarixga nazar tashlasak, ayollar, qiz farzandlarga nisbatan kamsitishlar bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Hattoki bu xususida badiiy asarlar ham yozilgan. Biroq XX asrda BMTda ishlab chiqilgan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" va "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyada xotin-qizlar huquqlari belgilab qo'yildi. Mazkur hujjatlar xotin-qizlarga nisbatan har qanday cheklashlarni tugatib, ularning oilaviy holatidan qat'i nazar, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida: siyosat, iqtisod, madaniyat va fuqarolikda xotin-qizlarning teng huquqlarini ta'minlashga chaqiradi²⁷.

Shuni unutmaslik kerakki, oilada jinsga qarab farzandlarga munosabatda bo'lish ularning ruhiyatiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Masalan, bir oilada ota-ona o'g'liga bu o'qishi kerak deb kompyuter olib bersa yoki uni qanday ishlatishni o'rgatsa, qiziga nisbatan bunday munosabatni qilmasa yoki qizining qiziqishlari-yu qobiliyatlarini inobatga olmasdan, ota-ona o'zining xohishlariga moslashtirsa, bu farzand ruhiyatiga juda katta zarba bo'ladi.

Xulosa. Ushbu maqoladagi fikrlar bir qarashda go'yoki bir tomonlama (qiz farzandlarga nisbatan) tahlildek ko'rinishi mumkin, biroq jamiyatimizdagi aksar oilalarda bu holat ko'p kuzatilgani bois alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masala deb o'ylaymiz. Barcha oilalarda holat biz yuqorida qayd etganimizdek stereotiplar asosiga qurilmagan, albatta. Shunday oilalar ham

²⁷ Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариға барҳам бериш тўғрисидаги Конвенция. – Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 1998. – Б. 1–3.

borki, u oilada har bir farzandning qiziqishi, iste'dodi inobatga olingan holda kasbga yo'naltiriladi. Jamiyatimizdagi har bir oilada shunday holat bo'lsa, gender zo'ravonliklarning ham oldi olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Султанова М.М. Гендер. Гендер? Гендер! – Хужанд, 2002. – 32 с.
2. Надолинская Л.И. Гендерные отношения на рынке труда: Современные тенденции Учет гендерных особенностей в образовании Таджикистане.
3. <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/oi/authority.20110803095846589#:~:text=The%20process%20of%20assigning%20social,with%20regards%20to%20certain%20activities>
4. Gender stereotypes and Stereotyping and women's rights. UN Human rights office of the high commissioner. https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Issues/Women/WRGS/OnePagers/Gender_stereotyping.pdf
5. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya. – Toshkent: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. 1998. – B. 1–3.
6. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
7. Saydivalieva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // "Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila" xalqaro ilmiy jurnali. – № 2 (7), 2023. – B. 30.
8. Saydivalieva K.K. (2023) Development of Gender Statistics in Uzbekistan and its Importance // International Scientific Conference on "New Scientific Trends and Challenges" 20th February, Rome, Italy. <https://openconference.us/index.php/trends/article/view/541/493>



Nazarova Ra'no Sidiq qizi,
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

DEVIANT XULQLI O'SMIR BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA GENDER OMILINING O'ZARO ALOQADORLIGI

Annotatsiya. *Shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatning dolzarb muammolaridan biri voyaga yetmaganlar o'rtasida turli shakldagi deviant xulq-atvor ko'lamining kengayishidir. Ushbu muammo voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasini samarali takomillashtirishda ularning agressiv xulq-atvorini har tomonlama, jumladan, gender jihatdan chuqur o'rganish zaruriyatini taqozo etmoqda. Ushbu maqolada deviant xulqli o'smir bolalar xulq-atvorida agressivlikning namoyon bo'lishi va uning gender bilan bog'liqligi ochib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *bolalar agressiv xulqi, o'smirlar huquqbuzarligi, gender stereotiplar, bilvosita agressiya.*

Аннотация. *Одной из актуальных проблем быстро развивающегося общества является расширение сферы применения различных форм девиантного поведения среди несовершеннолетних. Данная проблема требует тщательного изучения их агрессивного поведения, в том числе гендерного, с целью эффективного улучшения профилактики преступности несовершеннолетних. В данной статье раскрывается*

проявление агрессивности в поведении девиантных детей-подростков и ее связь с полом.

Ключевые слова: агрессивное поведение детей, подростковая преступность, гендерные стереотипы, косвенная агрессия.

Annotation. *One of the urgent problems of the rapidly developing society is the expansion of the scope of various forms of deviant behavior among minors. This problem calls for a thorough study of their aggressive behavior, including gender, for effectively improve the prevention of juvenile delinquency. This article reveals the manifestation of aggressiveness in the behavior of deviant adolescent children and its connection with gender.*

Keywords: *children's aggressive behavior, juvenile delinquency, gender stereotypes, indirect aggression.*

Jamiyatda zo'ravonlik jinoyatlari darajasining ortishi agressiv xulq-atvor muammosiga tobora ko'proq e'tibor jalb qilinishi zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Agressiv xulq-atvor – bu inson, biror jonzot yoki mulkning jismoniy yoki hissiy shikastlanishi yoki yo'q qilinishiga olib keluvchi har qanday xatti-harakatlardir. Agressiya og'zaki yoki jismoniy shaklda bo'lishi mumkin. Bolalarda agressiv xatti-harakatlarning, asosan, to'rt turi namoyon bo'ladi: tasodifiy, ekspressiv, g'arazli va instrumental. *Tasodifiy agressiya* baxtsiz hodisa kabi sodir bo'ladi. Masalan, bola tasodifan kimningdir oyog'ini bosib oladi, kiyim kiyayotganida qo'li kimgadir tegib ketadi va hokazo. Tasodifiy agressiv xatti-harakat aniq maqsad asosida sodir etilmaydi. *Ekspressiv* agressiv harakatda bola o'ziga shunday harakat yoqqanligi uchun uni amalga oshiradi va bu boshqalarni bezovta qilayotganiga e'tibor qaratmaydi. Masalan, o'yinchoqlarni baland taxlagan bola uni yiqitib, o'ynab kayfiyatini ko'taradi, boshqa bola esa bundan hafa bo'layotganini sezmaydi. Uloqtirish, yiqitish kabi harakatlar kattalar nazorati bilan xavfsiz bajarilganida bolalar uchun mos keladigan jismoniy mashqlar bo'lishi mumkin. Ammo, odamlarga yoki mulkka zarar yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlardan zavq olishi havfsiz vaziyatlardan tashqariga chiqqanda muammolar keltirib chiqaradi. *G'arazli* agressiya kimgadir jismoniy yoki ruhiy zarar etkazish maqsadida qilingan xatti-harakatlarni ifodalaydi. Buday turdagi harakatlarni sodir etadigan bolalar boshqalarning xafa bo'lishini ko'rishdan mamnun bo'lishadi va o'zlarini kuchli his qilishadi. Tadqiqotchilar bulling holatini ushbu turdagi agressiv harakatlarga misol sifatida ko'rsatadilar. *Instrumental* agressiv harakatlar bolada g'oliblik, ustunlik, egalik uchun amalga

oshiriladi. Bolalar o'zaro biror obyektni talashganida bir-birlariga zarar etkazish holatlari bunga misol bo'ladi²⁸.

Shu bilan birga, agressiv xatti-harakatlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, qo'zg'atuvchiga qarab reaktiv yoki proaktiv, nishonga qarab ochiq yoki aloqador agressiyaga kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bolalikdagi agressiv xatti-harakatlar ota-ona, pedagoglar, mutaxassislar tomonidan to'g'ri korreksiya qilinmasa, o'smirlik davrida deviant, delinkvent va kriminal xulq namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Bolalar, ayniqsa, o'smirlar huquqbuzarligining muhim jihatlaridan biri agressiv xulq-atvorning gender bilan uzviy bog'liqligidir. O'smirlik davri bolaning ham biologik, ham ijtimoiy o'zgarishlarni boshidan kechiradigan o'ziga xos murakkab davr ekanligini barcha soha vakillari ta'kidlaydilar. Bu davrda o'z-o'zini anglash va "Men" obrazining ijtimoiy hayotda mustaxkamlanishi o'smir hayotida muhim ahamiyatga ega. O'smir bu davrda nafaqat o'zini anglashi, balki, jamiyatda ham o'z o'rnini topishi muhimdir. Psixolog olimlar voyaga yetmaganlarning ulg'ayib borishida genderga oid xulq-atvor modellari, ijtimoiy rollar, erkak va ayollarning jamiyatdagi pozitsiyalari haqidagi fikrlari muhimligiga e'tibor qaratishmoqda²⁹. Shaxsning gender jihatdan shakllanishi faqatgina ma'lum yosh davrida shakllanuvchi holat bo'lmasdan, bolalikdan irsiy, ijtimoiy, jismoniy, psixologik va axloqiy omillar ta'siri shakllanib boruvchi murakkab jarayondir. O'smir bolalik va yetuklik davri o'rtasidagi qiyinchiliklarni boshdan kechirish jarayonida uning xulqida ma'lum og'ish holatlari ko'proq ko'zga tashlanadi. Ushbu jarayonda kichik yosh davrida, asosan, ota-onasi tomonidan, o'smirlik davrida tengdoshlari bilan muloqoti orqali shakllanuvchi gender stereotiplarning ahamiyati katta. O'sishi va rivojlanishi davomida bolalarning tobora gender stereotiplari haqida xabardorligi kuchayadi, bu davrda stereotiplar qat'iy, ammo, aniq bo'lmagan xarakter kasb etadi. O'smirlik davrida esa o'g'il bolalar va qizlarning kognitiv qobiliyatlari rivojlanib, gender rollari haqidagi o'z qarashlariga ega bo'lishadi. O'smirlik davrida agressivlikning

²⁸ Kostelnik, Marjorie; Purcell, Sarah Effken; Schroeder, Debra E.; Nelson, Mary E.; Krumbach, Eileen M.; Hanna, Janet S.; Durden, Tonia Renee; Defrain, John; and Bosch, Kathy R., "Helping Children Resolve Conflict: Aggressive Behavior of Children. G 2016" (2010). Faculty Publications from Nebraska Center for Research on Children, Youth, Families, and Schools. 72. <https://digitalcommons.unl.edu/cyfsfacpub/72>.

²⁹ **Клецина И. С.** Психология гендерных отношений: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора психологических наук. – Санкт-Петербург: 2004. – С. 9.

namoyon bo'lishiga oid dastlabki gender tadqiqotlar 1950-yillardan boshlangan. Birinchi ilmiy tadqiqotlar erkaklarga, xususan, o'smir o'g'il bolalarga qaratilgan. O'g'il bolalar qizlarga nisbatan ko'proq agressiv va shuning uchun tadqiqot markazida bo'lishi kerak degan fikrlar ilgari surilgan³⁰. Biroq so'nggi yillarda qiz bolalar huquqbuzarligi sonining ortishi tadqiqotchilarning agressiv xulqni gender jihatdan chuqur o'rganish zaruratini oshirdi.

Bir qator xorijiy olimlar gender va huquqbuzarlik o'rtasidagi bog'liqlikni turli omillar yordamida tadqiq etganlar. Gender va agressiv xulq-atvor (K.V. Sirokvashina & N.V. Dvoryanchikov, N.V. Jiginas & M.M. Aksyonov), gender stereotiplar va voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi (M.Y. Jumagalieva, L.Y. Kiryushina), gender kriminologiya (T.P. Afonchenko, V.D. Badmaeva, I.A. Chibisova, S.S. Rusinova) o'rtasidagi bog'liqliklar ilmiy tahlil etilgan.

N.V.Jiginas va M.M.Aksyonov fikricha, erkaklardan zo'ravonlikka uchragan ayol-qizlarda havotir, aybdorlik hissi va yorqin agressiv holatlar namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ayollar o'z xatti-harakatlarini o'rinli deb hisoblaganlarida ko'proq agressiya namoyish etadilar. Ayol-qizlar agressiyani g'azabni ifodalash, stressni tushurish va salbiy energiyani chiqarish vositasi sifatida ko'rishadi va ularning agressiv harakatlari aniq yo'nalgan va manzilli bo'ladi³¹.

K.V. Sirokvashina va N.V. Dvoryanchikov gender hodisalarining rivojlanishini tahlil qiladi, F.Adler nazariyasiga asoslanib, o'smir qizlar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishini bashorat qiladi va buni jamiyatda allaqachon mavjud bo'lgan gender stereotiplari inqirozi bilan izohladi. Ularning fikriga ko'ra, o'smir qizlar mushtlashuv, janjal va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarda erkaklarga taqlid qilishga intiladilar³².

Bolalarda huquqbuzarliklar sodir etilishi aksariyat hollarda bolalikdagi psixologik jarohatlar, ota-onaning pedagogik o'quvsizligi va bola atrofidagi muhitga bog'liq bo'ladi. Bolalikdagi xulqiy og'ishlar qiz bolalarga qaraganda o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Ular o'smirlik davriga etganida yangi sharoitga

³⁰ Estefanía Estévez, Amapola Povedano, Teresa I. Jiménez and Gonzalo Musitu. Aggression in adolescence: a gender perspective. 2012. <https://www.uv.es/~lisis/amapola/cap13/psycology-aggression-cap13.pdf>.

³¹ Н.В. Жигинас, М.М. Аксёнов. Проблемы агрессивности девиантных подростков в ракурсе маскулинного и феминного дискурсов. Вестник ТГПУ. Выпуск 1 (45). Серия: психология. 2005. - 80 с.

³² К. В. Сыроквашина, Н. В. Дворянчиков. Гендерная идентичность у подростков с делинквентным поведением. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 12. Вып. 1. 2008. - 222 с.

qiyin moslashadigan, maktab o'quv dasturidagi fanlarni o'zlashtirishga qiynaladigan va kriminal muhitga intiluvchi yoshlar bo'lib ulg'ayadilar³³. Shu bilan birga, o'g'il bolalarda xulqiy og'ish ko'rsatkichi yuqori bo'lganda, qiz bolalarda psixik og'ish ustunligi kuzatiladi³⁴. O'smirlarda agressiv xulqning ma'lum dinamikasini keltirib o'tadi: 12–13 yoshli o'smirlarda jismoniy va og'zaki tajovuz kuchayadi, 14–15 yoshlarda esa og'zaki tajovuz birinchi o'ringa chiqadi, jismoniy tajovuz undan biroz pasayadi³⁵. Ma'lum bo'lishicha, erkaklar jismoniy, ochiq, to'g'ridan-to'g'ri agressiyani, ayollar esa, aloqador va bilvosita agressiyani ifodalaydilar³⁶. O'smirlar ulg'ayib borgani sari bir nechta omillar, xususan, oila, maktab, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari kabi omillar ularga genderga oid xulq-atvor, munosabatlar va rollarni taqdim etib, ularni jinsga xos tarzda o'zini tutishga undashini ta'kidlashadi.

Agressiv xulq-atvorga ega bo'lgan qizlar va o'g'il bolalar turmush tarzi va qadriyatlarida turli farqlar bo'lishiga qaramay, ularning bir qator umumiy xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar qadriyatlar borasidagi qarashlarning bo'shligi, qiziqishlarning torligi, sevimli mashg'ulotlarning yo'qligi bilan ifodalanadi. Odatda, bunday bolalarda intellektual past daraja, o'zgalarga taqlid qilish, boshqalarga nisbatan g'azab va ayblov, o'ziga haddan tashqari yuqori/past baho berish, hissiy qo'pollik, keng ijtimoiy aloqalardan qo'rqish, qiyin vaziyatlarda o'zini qo'lga ola olmaslik, tanqidga nisbatan qo'pol reaksiya bildirish holatlari kuzatiladi³⁷. Agressiyaning shakllaridagi farqlar o'smirlik davrida yaqqol namoyon bo'lishiga qaramay, bu o'smirning ma'lum vaziyatdagi holati va individual xususiyatlariga bog'liq ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

³³ J.M. Biederman. Impact of Executive Function Deficits and Attention-Deficit/Hyperactivity Disorder (ADHD) on Academic Outcomes in Children / J.M. Biederman [et al.] // J. of Consulting and Clinical Psychology. – 2004. – Vol. 72, №5. pp.757-766.

³⁴ Бадмаева В.Д., Чибисова И.А., Русинова С.С. Предикторы криминального поведения у несовершеннолетних подростков с психическими расстройствами (гендерный аспект). Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области №1 (16) Т.3 2017. – С.11.

³⁵ Кобзева, О.В. Динамика агрессивности и ее взаимодействия с личностными особенностями в подростковом и юношеском возрастах [Текст]: автореф. ...дис. канд. психол. наук / О.В. Кобзева. – Москва, 2006. – 22 с.

³⁶ SeungYeong Im, Gwonhyu Jin. Gender Differences in Aggression-related Responses on EEG and ECG. 2018. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6318556/>.

³⁷ Жигинас Н.В., Аксёнов М.М. Проблемы агрессивности девиантных подростков в ракурсе маскулинного и феминного дискурсов. Вестник ТГПУ. Выпуск 1 (45). Серия: психология. 2005. – 78 с.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'smir o'g'il va qizlar o'ziga xos agressiv xulqni namoyish etadilar va bu ularning referent guruhlaridagi o'zaro aloqalar, muhit va vaziyatga bevosita bog'liq. Qat'iy gender stereotiplar asosida voyaga etayotgan o'smirlarda agressiv harakatlar sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'ladi. Erta bolalik davridan korreksiya qilingan agressiv xulq deviant va delinkvent xulqning ibtidosiga aylanmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'smir o'g'il-qizlarda agressiv xulqning shakllanishini oldini olish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish samarali deb hisoblaymiz:

Birinchidan, oilada va maktabda agressiv xulq profilaktikasi va rehabilitatsiyasi dasturlarini tuzishda deviant xulqli bolalar qiziqishlarini chuqur o'rganish, dastur rejasini tuzishda inobatga olish;

Ikkinchidan, o'smirlarga his-tuyg'ularni boshqarish bo'yicha kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish. G'azabni nazorat qilish psixologik dasturlari asosida treninglar o'tkazish.

Uchinchidan, depressiya holatida bo'lgan o'smirlarga malakali mutaxassislar suhbatini tashkil etish, stress holatidan chiqish bo'yicha turli metodlar haqida (neyrografika, nafas mashqlari, meditatsiya, klassik musiqa tinglash va hokazo) ma'lumot berish;

To'rtinchidan, o'g'il va qiz bolalarda agressiv harakatlar manbaini aniqlash va uni bartaraf etish choralarini ko'rish, o'smirning bandligini ta'minlash (til kurslari, sport mashg'ulotlari va hokazo), salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy tarmoqlarni o'zgartirish, o'smirni art-terapiya, animaloterapiya mashg'ulotlariga jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kostelnik, Marjorie; Purcell, Sarah Yeffken; Schroeder, Debra Ye.; Nelson, Mary Ye.; Krumbach, Yeileen M.; Hanna, Janet S.; Durden, Tonia Renee; Defrain, John; and Bosch, Kathy R., «Helping Children Resolve Conflict: Aggressive Behavior of Children. G2016» (2010). Faculty Publications from Nebraska Center for Research on Children, Youth, Families, and Schools. 72. <https://digitalcommons.unl.yedu/cyfsfacpub/72>.
2. Клецина И.С. Психология гендерных отношений: Автореф. дис ...докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2004.
3. Yestefanía Yestévez, Amapola Povedano, Teresa I. Jiménez and Gonzalo Musitu. Aggression in adolescence: a gender perspective. 2012. <https://www.uv.es/~lisis/amapola/cap13/psycolo-agression-cap13.pdf>.

4. Жигинас Н.В., Аксёнов М.М. Проблемы агрессивности девиантных подростков в ракурсе маскулинного и феминного дискурсов. Вестник ТГПУ. Выпуск 1 (45). Серия: психология. 2005.
5. Сыроквашина К.В., Дворянчиков Н.В. Гендерная идентичность у подростков с делинквентным поведением. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 12. Вып. 1. 2008.
6. Biederman J.M. Impact of Yexecutive Function Deficits and Attention-Deficit/Hyperactivity Disorder (ADHD) on Academic Outcomes in Children / J.M. Biederman [yet al.] // J. of Consulting and Clinical Psychology. – 2004. – Vol. 72, № 5.
7. Бадмаева В.Д., Чибисова И.А., Русинова С.С. Предикторы криминального поведения несовершеннолетних подростков с психическими расстройствами (гендерный аспект). Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области №1 (16) Т.3 2017. – С. 11.
8. Кобзева, О.В. Динамика агрессивности и ее взаимодействия с личностными особенностями в подростковом и юношеском возрастах [Текст]: автореф. дис. ...канд. психол. наук / О.В. Кобзева. – Москва, 2006.
9. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // “Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila” xalqaro ilmiy jurnali. № 1 (2), 2022. – B. 68.
10. Z. Ismailova, R. Ismaylova, K. Saydivalieva, G. Tuychieva (2021) Development of Gender Entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and Environmental Engineering, Volume 284. <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
11. Saydivalieva X.X. Gender tengligi va gender statistikasi: Moldova tajribasi // “Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila” xalqaro ilmiy jurnali. № 2 (7), 2023. – B. 30.



Шарипова Асаль Сарваровна,
докторант 1 курса НИИ
“Оила ва хотин-кизлар”

ГЕНДЕРНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ НАСИЛИЯ В СЕМЬЕ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы учета гендерных особенностей детей, которые были свидетелями агрессивных взаимоотношений в семье. Приводятся фактологические данные по изучению этих явлений среди детей дошкольного возраста

Ключевые слова: дети, домашнее насилие, гендер, последствия насилия, дошкольный возраст

Annotatsiya. Maqolada oiladagi tajovuzkor munosabatlarning guvohi bo'lgan bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olish masalalari ko'rib chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida ushbu hodisalarni o'rganish bo'yicha dalillangan ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: bolalar, oiladagi zo'ravonlik, jins, zo'ravonlik oqibatlari, maktabgacha yosh

Annotation. The article deals with the issues of taking into account the gender characteristics of children who witnessed aggressive relationships in the family. Factual data on the study of these phenomena among children of preschool age are given.

Keywords: children, domestic violence, gender, consequences of violence, preschool age

В настоящее время семейное насилие представляет собой серьезную социальную проблему, которая продолжает оставаться актуальной в нашем обществе – согласно данным ВОЗ, так как каждая третья женщина подвергается жестокому физическому обращению со стороны интимного партнёра [1]. В Узбекистане статистические данные свидетельствуют о том, что в 2021 году в правоохранительные органы поступило 39343 обращения о случаях насилия в отношении женского пола, из них 34330 или 87 %, совершены в семье [2]. Очевидно, что данная проблема, независимо от национальной принадлежности, страны, не является гендерно-нейтральной, и, поэтому, ее следует рассматривать с учетом гендерного аспекта и осуществления тщательного гендерного анализа положения дел в обществе в целом и конкретной семейной ситуации в частности.

Применяя гендерный подход к данной проблематике, можно найти ответ на ряд вопросов: в чем причина распространения насилия? Почему в большинстве случаев женщины предпочитают не озвучивать об насильственных актах мужа по отношению к ним и детям? Провоцирует ли традиционное распределение гендерных ролей насилие в семье?

Понятие «насилие в семье» подразумевает не только реальные действия или угрозы умышленного физического и сексуального характера, но и также психологическое и экономическое воздействия, принуждения со стороны одного члена семьи по отношению к другому с целью контроля, запугивания или удовлетворения своих потребностей.

Узбекистан проводит активную деятельность по решению этой проблемы. Президент Республики Узбекистан Ш. Миризийев вопрос о борьбе с домашним насилием поднял на новый уровень. Поэтапно разрабатывается Национальная программа по повышению активности женщин во всех сферах экономической, политической и социальной жизни страны на 2022–2026 годы, где прописаны основные шаги к достижению фактического равенства женщины с мужчиной, повышению её статуса [3]. Принят ряд нормативно-правовых документов, которые являются гарантом обеспечения гендерного равноправия, так, в 2019 году были приняты законы «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» [4] и «О защите женщин от притеснения и насилия» [5]. Принятие **Закона «О внесении изменений и дополнений**

в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с дальнейшим совершенствованием системы надежной защиты прав, свобод и законных интересов женщин и детей» от 11.04.2023 г., представил возможность перейти на новый уровень обеспечения безопасности женщин и детей, а также достижения гендерного равенства [6]. Данный закон охарактеризовал кардинальные изменения в том, как системе правосудия по рассмотрению прав женщин и девочек, и внес конкретные действия, направленные на то, чтобы новые гарантии, установленные этим законом, стали реальностью.

Совместное международное сотрудничество с USAID позволило Узбекистану дополнительно укрепить свои позиции по достижению гендерного равенства. Как известно, USAID стремится предотвращать и реагировать на гендерное насилие во всем мире, которое является нарушением прав человека. Профилактика гендерного насилия является одним из приоритетных направлений USAID, что проявляется в инвестировании программ, которые направлены на устранение коренных причин притеснения женщин во всех сферах. В нашей стране USAID расширило партнерские отношения с неправительственными организациями, женскими группами, частным сектором и государственными учреждениями для реализации эффективных программ по повышению осведомленности и предотвращению негативных последствий насилия в отношении женщин.

Одним из проектов является совместное сотрудничество НИИ «Оила ва хотин-кизлар» и USAID, в рамках которого осуществляются мероприятия, нацеленные на повышение осведомленности женщин и девушек в области гендерного равенства, повышение их профессионального уровня, и другая просветительская деятельность, направленная на преодоление гендерного неравенства.

В частности, с 1 августа по 3 августа 2023 года была проведена очередная Летняя Школа «Учет гендерных проблем в научных исследованиях» в «Эдельвейс» для молодых научных исследователей, где спикеры профессионально раскрыли основные вопросы гендерной тематики, привели ключевые аргументы в пользу необходимости включения в научные исследования гендерных аспектов [7]. Также в процессе обучения молодые специалисты ознакомились с основными

принципами и нормами проведения научной деятельности. Занятия были проведены в интерактивной форме, что способствовало успешному усвоению информации.

Следует отметить, что Узбекистан стремительно движется по направлению достижения гендерного равенства, и предпринимает все необходимые меры для этого, в связи с чем научные исследования в этом направлении являются необходимым условием для реализации данной цели.

Реализуемое нами научное исследование в рамках изучения последствий насилия в определённой мере может способствовать решению этой проблемы. Известно, что в диаде «Агрессор» и «Жертва», страдают все остальные члены семьи. Дети подвержены пагубному влиянию более остальных, как самое уязвимое звено общества. «Дети, ставшие свидетелями бытового насилия, приобретают психические травмы, которые, в свою очередь, приводят к эмоциональным нарушениям, которые могут проявиться не только непосредственно после инцидента, но и по истечении длительного срока. Дети, будучи постоянными наблюдателями физического избиения и психологического прессинга родителя, могут находиться в постоянном напряжении, в ожидании следующего акта насилия. Даже не всегда наблюдая сам процесс произвола домашнего тирана, они многое слышат, а также чувствуют психическое напряжение матери, что в итоге приводит к состоянию хронического посттравматического стрессового расстройства (ПТСР). Каждая категория детей переносит ПТСР и реагирует по-разному, в зависимости от возраста. В дальнейшем эти дети имеют высокий процент вероятности повторить путь отца или матери – приобрести склонность к виктимности или к насилию» [8].

В эмпирическом исследовании данной тематики была поставлена цель – установить взаимосвязь между субъективной семейной ситуацией ребёнка и его представлением о том, как он оценивает себя сам, и как, по его мнению, его оценивают другие люди. При этом в процессе эксперимента и обработки результатов учитывались гендерные особенности.

В эксперименте приняли участие 34 дошкольника старшей группы ДОО, из них 18 девочек и 16 мальчиков. Количественный анализ проводился в процентном соотношении к гендерной категории.

В рамках экспериментального исследования использовалась методика «Семья в образах животных», это модификация методики «Моя семья», предложенная Э.В.Романовой, которая посредством символичности изображения семьи ребенком, позволяет установить характеристику каждого ее члена, а также выявить внутрисемейные взаимоотношения, установить источник конфликтов, если таковые имеются. Процесс проведения методики также дополнялся устным интервью с детьми и воспитателем.

Анализ результатов позволяют выявить следующие психоконфликты:

- благоприятная семейная ситуация, при которой отсутствуют показатели враждебности, выявлена у большинства девочек, мальчики субъективно воспринимали ситуацию в семье более негативно.

- большинство мальчиков ощущают тревожность, которая на поведенческом уровне проявляется в повышенной возбудимости, беспокойстве, раздражительности, ребенку сложно сосредоточиться на текущей деятельности. У девочек данные показатели гораздо ниже процент;

- конфликтность в семье наблюдается у практически у половины мальчиков, которая воспринимается дошкольниками как угроза их благополучному существованию и безопасности, исходя из качественного анализа рисунка, в основном, источником агрессии является отец или дедушка. У девочек также продолжает наблюдаться более низкий процент;

- чувство неполноценности в семейной ситуации наблюдается у половины мальчиков и у трети девочек, как правило, это или сам ребенок или его мать. Наличие изолированности в семье способствует проявлению таких свойств личности, как замкнутость, стеснительность, неуверенность в себе;

- враждебность в семейной ситуации. Анализ этого психоконфликта уделено особое внимание, так как наличие враждебности в семье свидетельствует о наличии насильничества дошкольников этот показатель составил 50 %, у девочек 30 %.

Анализ результатов исследования проводился с учетом устного описания рисунка ребенком, а также с учетом этнокультурных особенностей - в семьях Узбекистана, где традиционно приоритетные

роли в семье распределяются по старшинству, поэтому гипертрофия изображения на рисунке отдельных фигур может быть вызвана не страхом ребенка, а социальным значением этого родственника в семье. Примером можно привести порядок распределения эды за общим столом. В первую очередь эду кладут самым старшим членам семьи, затем, в порядке убывания возраста, пищу получают остальные. Самый младший получает эду в тарелку в последнюю очередь. В Узбекистане в приоритете уважительное отношение к старшему поколению.

На втором этапе исследования *выявлены системы представлений ребенка о том, как он оценивает себя сам, и как это, по его мнению, оценивают другие люди, для этих целей* была использована методика «Лесенка» (В.Г. Щур).

При интерпретации результатов следует учитывать, что для детей старшего дошкольного возраста характерно представление, что окружающие высоко их оценивают, идет процесс формирования самооценки. Если значимые люди (по мнению ребенка) оценивают это так же, как он оценил себя, или дают более высокую оценку – ребенок психологически благополучен.

Интерпретация результатов методики «Лесенка» выявила, что большинство детей имеют завышенную самооценку, что является для их возраста нормой, однако, при этом только 22 % дошкольников считает, что их родители такого же высокого мнения о них.

Выводы:

По окончании проведения анализа результатов и их сопоставления, можно сделать вывод, что наличие в семье насилия повышает у детей уровень тревожности, катализируется начало процесса обесценивания себя самими и другими. Изучая результаты отдельных детей, можно увидеть, что наличие враждебности в семье, и отчуждения и конфликтности приводит к максимально низкому уровню самоотношения и низкому оцениванию себя родителями. Таким образом, на сегодняшний день остается актуальной проблема решения гендерных аспектов в семье, что влияет на уровень насилия в семье, что может привести к психическим и физическим нарушениям детей. Анализ полученных результатов свидетельствует о том, что могут быть представлены следующие рекомендации в профилактических целях:

– необходимо вести духовно-просветительскую деятельность среди населения в сфере гендерного равенства, а также ознакомление с основами семейной психологии;

– педагогический состав образовательных учреждений также должен быть осведомлен об основных проявлениях наличия насильственных явлений в семье – как и внешних признаков, так и поведенческих для обеспечения гендерного равенства;

– для обеспечения гендерного равенства в семье назрела необходимость рассмотрения вопроса о введении административной ответственности родителей на законодательном уровне, что может способствовать снижению уровня конфликтности в семье, когда рядом есть дети-свидетели;

Список литературы:

1. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>
2. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/04/26/violence/>
3. <https://miit.uz/ru/gender/natsionalnaja-programma-povyshenija-aktivnosti-zhenschin-uzbekistana>
4. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/09/05/yequality/>
5. <https://lex.uz/pages/404.aspx?aspxerrorpath=/docs/4494712>
6. https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/za_bytovoe_nasilie_ustanavlivaetsya_administrativnaya_i_ugolovnaya_otvetstvennost
7. <http://surl.li/kluzw>
8. Sharipova A. S., Impact of Domestic Violence on the Process of Formation of Self-Estimation of Children in Preschool Age. MIASTO PRZYSZŁOŚCI: VOL. 2022;29 : S.37
9. Сайдивалиева Х. Гендер тенгликка эришишда таҳлилий усул ва воситаларнинг аҳамияти // Марказий Осиёда гендер, жамият ва оила халқаро илмий журнали. – № 1 (2), 2022. – Б. 68.
10. Ismailova Z., Ismaylova R., Saydivaliev K., G. Tuychieva (2021) Development of gender Entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and Environmental Engineering, Volume 284. <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
11. Сайдивалиева Х.Х. Гендер тенглиги ва гендер статистикаси: Молдова тажрибаси // Марказий Осиёда гендер, жамият ва оила халқаро илмий журнали. – № 2 (7), 2023. – Б. 30.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZLARI

Egamberdiyeva N.M.	4
Nazarova R.	7

MA’RUZALAR

Saydivalieva X.X. Fan tushunchasi. Ilmiy tadqiqotlar. Ilmiy tadqiqotlarning turlari va bosqichlari. Ilmiy nashrlar	10
Хамдамова Ф.У. Продвижение женщин в сфере науки как важное условие обеспечения прав и расширения возможностей для женщин	20
Қосимова Н.С. Влияние экологических проблем на гендерное насилие	26
Alimov S.K. Gender tengligi va migratsiya	32

ISHTIROKCHILAR MAQOLALARI

Yulchiyeva D.X. Oilalardagi barqaror ijtimoiy hayotni ta’minlashda gender tenglik tadqiqotlarni o’rganish va tahlil etish	40
Tadjixodjayeva O.A. O’zbekistonda mojaroli hududlardan qaytarilgan bolalar va ayollarni jamiyatga moslashtirishning holati va mavjud muammolar	48
Nurullayeva U.N. Jamiyatda xotin-qizlar huquqiy tengligini ta’minlashning ijtimoiy asoslari	61

Hojiyev R.B. Yoshlarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda gender tafovutlarining o'rne	68
Махмудова М.А. Дулутская модель работы с семейными насильниками: принципы, этапы и цели в контексте борьбы с насилием в семье в Узбекистане	74
Jumaniyazova M.Sh. Islomda gender tengligi masalasining o'ziga xos jihatlari	79
Nomozova O'A. Oilada farzand tarbiyasidagi gender differentsatsiya va ularning oqibatlari	85
Nazarova R.S. Deviant xulqli o'smir bolalarda agressiv xulq-atvor va gender omilining o'zaro aloqadorligi	91
Шарипова А.С. Гендерные аспекты проблемы насилия в семье.....	98

“ILMIY TADQIQOTLARDA GENDER MASALALARINI INOBATGA OLISH”

*mavzusidagi Yozgi maktab yakunlari
bo'yicha to'plam*

“Mahalla va oila” nashriyoti
Toshkent – 2023

Nashr uchun mas'ul: **B. Mavlonov**
Muharrirlar: **U. Yunusov,**
O'. Nomozova
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



1940

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2023.

“Calibri” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog'i 7,4.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,

M.Ismoilıy ko'chasi 1-G uy.

«Pages print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko'chasi, 8-uy.